Kuch – bilim va tafakkurda

# Ma’rifat

Ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2024-yil 25-dekabr chorshanba № 52(9533)

Xalq ziyolilari gazetasi



## KIM ENG BALAND OYLIKKA MUNOSIB DEYISHSA – O‘QITUVCHI DEB AYTING!

**12 yildan beri turli sohalarda ishlab ko‘rdim, asosan, jurnalistika, ammo ichida boshqa har turli “qora” va oq ishlar bor. Jismonan charchagan yoki ruhan ezgan ishlar bo‘lgan, lekin ikkisi birda bo‘lmagan hech. Ularning orasida eng qiyini – o‘qituvchilik bo‘ldi! Ha, “Pedagogik mahoratga ega, tug‘ma pedagog bo‘lib tug‘ilish, zamonga moslashish kerak”, kabi gaplarni aytishingiz mumkin. Lekin hamma gap bundamas. Birgina o‘qituvchi o‘z ustida ishlagani bilan muammo hal bo‘lib qolsa qaniydi?!**

Ta’lim tizimida muammolar ko‘p, baholashda muammolar ko‘p, qadriyatlar parchalanib, o‘rniga qonun ishlasin degan zamondamiz, ishlamayotgan qonunlarimizda muammolar ko‘p – shu sabab mas’uliyat tuyg‘usi tolibi ilmlarda kamayib ketgan. Mayli, bular o‘z yo‘liga. Hatto shular to‘g‘irlanganda ham o‘qituvchilik eng og‘ir kasb bo‘lib qolaveradi. Ishoning, bolalarni o‘qitish, qiziqtirish, baholash, to‘g‘ri yo‘naltirish – bor kuch va energiyangizni oladi. Ham jismonan, ham ruhan. O‘zingiz uchun yashamay qo‘yasiz. Shunaqa og‘ir kasb ekan o‘qituvchilik!

Bu tizimga qaytish niyatim yo‘q, ammo o‘zimgayam, sizgayam gapim shuki, nima uchundir kurashmoqchi bo‘lsangiz, o‘qituvchi uchun kurashing! Kim eng baland oylikka munosib deyishsa – o‘qituvchi deb ayting! Mamlakat, jamiyat kimni ko‘p qadrlashi kerak, deyishsa, o‘qituvchini deb ayting!

Bir yillik tajribamdan shu xulosani oldim! Va nihoyat tushundimki, o‘qituvchi va shifokor mamlakat va jamiyatning eng qadrli odami bo‘lishi kerak, deb bejiz aytilmas ekan! Mehnati o‘ta kichik ko‘rinadigan, kam qadrlanadigan, davralarda dovruq solmaydigan bu odamlar eng og‘ir, eng muhim ishni qilayotganini, qolganlarimizda ko‘proq shaxsiy manfaat ustunligini tan olaylik! O‘qituvchi sarflaydigan energiya esa o‘sha shaxsiy manfaat – puldan ming karra ustun. Biz o‘qituvchilar masalasida nimanidir noto‘g‘ri qilyapmiz. Na podkast, na ko‘rsatuv, na tarmoqlarda ular haqida gapiramiz! Biz eng kerakli odamlarni ko‘zdan pana qilganmiz – asosan tanqid yog‘diramiz! Shu tanqidchilarimiz ham o‘qituvchining bir kunlik ishiga dosh bermay “dod” deb ketishini tushundim! Bilmadim, hozir ichimda eng ko‘p shu soha xodimlariga hurmat va hamdardlik bor!

Jamiyat va davlat o‘qituvchi bilan muloqotga ochilishi kerak, bo‘lmasa o‘zimizni o‘zimiz aldaymiz.

**Tillaniso NURYOG‘DI**



# USTOZ BO‘LGIM KELADI

16-bet

# YANGI YIL

Osmonda qor parchadan
Jo‘natib kel, yangi yil.
O‘rmonda bor archadan
Bezatib kel, yangi yil.

Archalarga o‘yinchoq
Osib kelgin, yangi yil.
Sovg‘alarni qopingga,
Bosib kelgin, yangi yil.

Zilol shaffof suv kabi
Oqib kelgin, yangi yil.
Ko‘ngillarga iliqlik,
Yoqib kelgin, yangi yil.

Tarnovlarga sumalak
Ilib kelgin, yangi yil.
Yaylovlarga yaxmalak,
Qilib kelgin, yangi yil.

Dasturxonga to‘kinlik
Sochib kelgin, yangi yil.
Ko‘nglingni miskinlarga
Ochib kelgin, yangi yil.

El-u yurtga osoyish
Tortiq qilgin, yangi yil.
Rizq-u ro‘zni bundan-da
Ortiq qilgin yangi yil.

Seni rosa sog‘inib,
Kutmoqdamiz, yangi yil.
Dilda neki qog‘ozga
Bitmoqdamiz, yangi yil.

Abdurashid ERGASHEV,
Asaka tumanidagi
26-maktab o‘qituvchisi

Mutaxassis minbari

# MENEJERLIK SALOHIYATIGA TA'LIM MUASSASASIDA

***Ta'lim dunyoni o'zgartirish uchun foydalanishingiz mumkin bo'lgan eng kuchli quroldir.***

**Nelson Mandela**

*Birinchi va ikkinchi sinfni qishloq maktabida o'qiganman. Bitta qishloqda bitta, to'rtta xonadan iborat maktab bo'lardi. Ikki derazali, qiyshiq eshikli, yozda issiq, qishda sovuq sinfxonada 40 dan oshiq o'quvchi tiqilib o'tirganmiz. Qishning sovug'idan ruchkalarimizning uchi muzlab qolardi, mo'rili pechkaning ustiga qo'yib isitib keyin yana yozishda davom etardik. Maktab direktorimizni oyda bir ko'rmasdik, ko'rsak ham qo'rqqanimizdan sinf tomon qochardik. Aslida maktab direktori kim? Bugungi kun maktab direktorlari qanday bo'lishi kerak? Ularning maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Bugun zamonaviy maktab direktorlari haqida Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti akademik faoliyat bo'yicha birinchi prorektori Hushnamo BURHONXO'JAYEVA bilan suhbatlashamiz.*

**– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqib rahbar kadrlar malakasini oshirish tizimi tashkil qilinishi direktorlarga yanada mas'uliyat yukladi, desak adashmaymiz. Ayting-chi, maktab va maktab direktorlari uchun ushbu tizimning qanday afzalliklari bor?**

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori hamda "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to'g'risida"dagi qarori qabul qilingandan keyin maktabgacha va maktab ta'limi rahbar xodimlarining malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi, moliyaviy savodxonligi va individual kasbiy rivojlanishiga mos keladigan menejerlik o'quv kurslari tashkil etildi.

Aslida maktab direktori qanday bo'lishi kerak? Rahbar doimiy ravishda yetakchi va ta'lim jarayonining tashkilotchisi sifatida o'zining imkoniyatlarini ko'rsata oladigan kadr bo'lishi lozim. Ayniqsa, boshqaruv sohasida yaxshi tayyorgarlik ko'rishi juda muhim. Maktab rahbarining asosiy vazifalaridan biri, albatta, xodimlar o'rtasida ijobiy muhitni shakllantirish, sifatli muloqot usullaridan foydalangan holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish, xodimlarni rag'batlantirish, kichik yutug'i uchun ham e'tirof etish, ularga shaxsiy namuna bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan menejerlik kurslaridan ko'zlangan asosiy maqsad menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan nomzodlar orasidan maktab direktori lavozimiga munosib nomzodlar zaxirasini shakllantirishdan iborat.

Ana shunday kuchli pedagogik jamoani shakllantirib berish maqsadida o'qituvchilarni boshqarish uchun ko'proq yetakchilik strategiyalaridan foydalanib, kuchli pedagogik jamoani shakllantirish yo'lida ta'lim ekspertlari va mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab kelamiz.

**Ushbu menejerlik kurslari quyidagi davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi:**

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar;

jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari;

sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari;

ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar;

alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar.

**– Menejerlik sertifikati joriy etilishi sabab yaxshi direktorlarni ham boy berib qo'ymayapmizmi?**

– Ayni paytda yangi davr direktorlar tarkibi shakllantirilyapti. Bilasizmi, bugungi kun zamonaviy maktab rahbari ta'limda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklardan boxabar bo'lishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlashi, boshqaruv, psixologik, moliyaviy va AKT savodxonligi bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi zamon talabi. Ushbu ko'nikmalar o'quv kursi jarayonida shakllantirilib, shu yo'nalishda bilim va ko'nikmalar baholanadi.

Tahliliy natijalarga ko'ra o'quv kursi yakunida o'tkaziladigan sinovlarda ayrim direktorlar yetarli ball to'play olmagani uchun o'z xatolarini tushungan holda imtihonlarni qayta topshirib sinovlardan ijobiy natijalar ko'rsatyotganlari ham ko'p.

Shuningdek, menejerlik kursini bitirgan nomzod tinglovchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonidan kelib chiqib umumiy o'rta ta'lim muassasalarining direktorlik lavozimiga tayinlanadi.

**– 2025-yildan MTT direktorlariga ham menejerlik sertifikati beriladimi?**

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga asosan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori har 5 yilda bir marotaba menejerlik sertifikatini yangilab turishi talab qilinadi. Shundan so'ng menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan nomzodlarga davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori lavozimi uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi. 2025-yil 1-sentabrdan boshlab menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga ushbu sertifikatning amal qilish muddati davomida lavozim maoshiga har oy 30 foizlik ustamalar to'lab berilishi ham ko'zda tutilgan.

**– Nomzodlarga menejerlik kurslarida o'qish uchun to'lov usullari qanday belgilanadi?**

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikani berish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroridan kelib chiqib menejerlik o'quv kurslarida nomzodlar to'lov to'lagan holatda o'qitiladi.

O'quv kurslarida bir nafar nomzod uchun o'qitish xarajatlarining to'lov miqdori institutning asoslangan kalkulyatsiyasiga muvofiq Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan har yili 1-dekabrga qadar tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan o'qitish xarajatlari uchun to'lov miqdori nomzodlardan undiriladi va ushbu mablag'lar institutning budjetdan tashqari jamg'armasiga yo'naltiriladi. Menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan maktab direktorlariga 50 foiz, maktab direktori o'rinbosarlariga 30 foiz ustama to'lanadi.

**– Bu jarayon qaysi davlatlar tajribalari asosida yo'lga qo'yilgan?**

– Institutda menejerlik o'quv kurslarini tashkil etish borasida bir qator rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganildi. Jumladan, Singapur, BAA, Avstraliya kabi davlatlar tajribasiga ko'ra maktab direktorlarini tayyorlashda kasb standartlari asos sifatida olingan. Direktorlik lavozimiga **nomzodlarni** menejerlik o'quv **kurslarida o'qitish** hamda **maxsus portal orqali** ularga **menejerlik sertifikatini elektron shaklda berish tizimi ham joriy qilingan**. O'quv kursi **144 soatlik** va **6 ta modul –** "Ta'lim menejmenti", "Ta'lim muassasasini rivojlantirish va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish", "O'zini-o'zi va o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish", "Inson resurslarini boshqarish", "Ish yuritish va hisobot", "Jamoatchilik va ota-onalar bilan munosabat" va "Maktab amaliyoti"dan iborat o'quv reja asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, tinglovchilarga beriladigan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida o'quv rejasiga asosan **36 soatlik** "Maktab amaliyoti" mashg'ulotlari tashkil etilgan. Ushbu amaliyotda tinglovchilar jamoada ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish, boshqaruv, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, ta'lim tizimida boshqaruv psixologiyasi, umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarish, zamonaviy menejer va lider, boshqaruvda muammolarga yechim topish va qarorlarni qabul qilish kabi mavzularda tayanch maktablarning boy tajribaga ega direktorlaridan kerakli bilim va tavsiyalarni olishadi.

Mahalliy va xalqaro hamkorlar bilan birgalikda o'quv kursining o'quv reja va dasturlari ishlab chiqilib, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazida ekspertizadan o'tkazildi.

**– Bilishimizcha, yangi tartibga ko'ra maktab direktorlarini lavozimiga tayinlash endilikda "Direktorlar kengashi" tavsiyasiga asosan amalga oshiriladi. Aslida, "Direktorlar kengashi"ning vazifalari nimalardan iborat?**

– Menejerlik kursini bitirgan nomzod tinglovchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonidan kelib chiqib umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini lavozimiga tayinlash Direktorlar kengashi tavsiyasiga asosan ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Direktorlar kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

● umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlarga, yuqori malaka va tajribaga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega mutaxassislarni tanlash, saralash asosida munosib nomzodlarni tavsiya etish;

● umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlari boshqaruvini jamoatchilik ishtirokini kengaytirish orqali takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga kiritish;

● umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlari sifati va samaradorligini ta'minlash, bunda samarali boshqaruvni amalga oshirish, joylarda amaldagi me'yoriy hujjatlarga amal qilinishi monitoringini olib borish va tegishli takliflar ishlab chiqish;

● umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sog'lom ishchanlik va ma'naviy muhitni shakllantirish, pedagoglarning samarali kasbiy faoliyati uchun tegishli sharoitlarni yaratish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

● umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarining reyting ko'rsatkichlarining yillik o'sish dinamikasini ko'rib chiqish jarayonlariga ko'maklashish;

● ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarining faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

● umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari, o'qituvchilari va pedagoglarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarda vakolati doirasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

● umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshqaruvida sog'lom muhitni tashkil etish maqsadida pedagoglar, ota-onalar, o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar va o'rganishlar o'tkazish.

**– Jarayonda o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'sir qiladigan jihatlar, yuzaga kelgan muammolar haqida ham to'xtalib o'tsangiz.**

Xato va kamchiliklarsiz ish bo'lmaydi, albatta.

# EGA RAHBARLAR: NIMALARNI O‘ZGARTIRA OLADI?

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktorlarining boshqaruv faoliyatida amaliyot bilan nazariyaning uyg‘unlashmagani direktorlarda rahbarlik salohiyatining yetishmasligiga olib keladi, bu esa, tabiiyki samaradorlikka ta’sir qilmay qolmaydi. Masalan, nomzodlar quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yishmoqda:

● boshqaruv faoliyatida yumshoq ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ishlamasligi;

● test topshiriqlari boshqaruv ko‘nikmalarini baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, sinov jarayonida topshiriq savollarining mohiyatini tushunib yetmasdan javoblarni belgilash;

● test topshiriqlari asosan qo‘llash va tahlil qilishga qaratilganligi sababli direktorlarda ushbu ko‘nikmalarning yetishmasligi;

● o‘quv jarayoni davomida yakuniy sinov topshiriqlari xotirani emas, ko‘nikmani baholashga qaratilganligi, topshiriqlar o‘quv dasturi asosida shakllantirilgan kontentlar doirasida ishlab chiqilishi tushuntirilishiga qaramasdan direktorlar o‘quv mashg‘ulotlari mazmuniga e’tibor bermasdan turli ijtimoiy tarmoqlardagi testlarni yodlash bilan chalg‘ib qolmoqda. Buni tizimda avvaldan shakllangan test sinovlari jarayoni to‘g‘risidagi eski stereotiplarning hali o‘zgarmaganligi bilan izohlash mumkin;

● direktorlar o‘zlarining boshqaruv faoliyatida turli grant va amaliy loyihalar bilan ishlamasligi, loyihalarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvga asoslanmaganligi ularda amaliy topshiriq taqdimotlarini tayyorlash va taqdimot qilish ko‘nikmalari yetarli emasligini ko‘rsatmoqda;

● amaliy topshiriq taqdimotini baholash mezonlari mazmuni bilan bir necha bor tanishtirilishiga qaramasdan taqdimotlarni tayyorlash va taqdimot qilishda ushbu mezonlar talablarini e’tiborga olmasligi, shuningdek, o‘quv kurslariga jalb etilgan direktorlarning o‘z xohishi bilan kelmasligi, hududiy boshqarmalar tomonidan majburiy yuborish holatlari ham kuzatilmoqda. Bundan ko‘rinadiki, direktor o‘zi xohlab kelmasa, berilayotgan bilim va ko‘nikmalar ham puxta egallanmaydi.

Yana bir narsa, o‘quv rejadagi mavzularni o‘zlashtirish uchun ikki oy vaqt kerak bo‘ladi, lekin menejerlik o‘quv kurslarining bir oy davom etishi nomzodlarning mavzularni to‘liq o‘zlashtirolmasligiga sabab bo‘lmoqda.

**− Keling, statistikaga ham nazar solsak. Menejerlik sertifikatiga oid statistika qanday, raqamlar nima deydi?**

− Ayni paytda Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi rahbar kadrlar bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazida 2024-yil fevral oyidan boshlab tashkil etilgan menejerlik o‘quv kursiga 2667 nafar tinglovchi (umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktori lavozimiga nomzodlar va direktorlar) qabul qilingan. Shundan 1613 nafari direktor lavozimiga nomzodlar va 1054 nafar amaldagi maktab direktorlari. Kursga qabul qilingan 2667 nafar tinglovchidan 106 nafari turli sabablarga ko‘ra kurs tinglovchilari safidan chiqarilgan, 2561 nafari yakuniy sinovlarda ishtirok etgan. Umumiy holatda baholash natijalariga ko‘ra, yakuniy sinovlarda ishtirok etgan tinglovchilarning 1712 nafari kursni muvaffaqiyatli tamomlagan bo‘lsa, 849 nafari sertifikatga tavsiya etilmagan (1-diagramma).




**1-diagramma. Sertifikatga tavsiya etilgan va etilmagan umumiy tinglovchilar soni.**

Jumladan, kursga qabul qilingan 1613 nafar maktab direktori lavozimiga nomzodlardan 44 nafari kurs tinglovchilari safidan chiqarilgan. Yakuniy sinovlarda ishtirok etgan 1569 nafar nomzodlardan 1101 nafari kursni muvaffaqiyatli tamomlagan, 468 nafari sertifikatga tavsiya etilmagan (2-diagramma).




**2-diagramma. Sertifikatga tavsiya etilgan va etilmagan maktab direktori lavozimiga nomzodlar soni.**

Kursga qabul qilingan 1054 nafar amaldagi maktab direktorlaridan 62 nafari kurs tinglovchilari safidan chiqarilgan. Yakuniy sinovlarda ishtirok etgan 611 nafari kursni muvaffaqiyatli tomomlagan, 381 nafari sertifikatga tavsiya etilmagan (3-diagramma).




**3-diagramma. Sertifikatga tavsiya etilgan va etilmagan amaldagi maktab direktorlari soni.**

Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan barcha 1712 nafar tinglovchidan 1018 nafari erkak, 694 nafari ayol kishi (4-diagramma).




**4-diagramma. Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarning umumiy erkak va ayollar kesimidagi soni.**

Jumladan, kursni muvaffaqiyatli tamomlagan 1101 nafar maktab direktori lavozimiga nomzodlarning 677 nafari erkak, 424 nafari ayol kishi (5-diagramma).




**5-diagramma. Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan maktab direktori lavozimiga nomzodlarning erkak va ayollar kesimidagi soni.**

Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan 611 nafar amaldagi maktab direktorlarining 341 nafari erkak, 270 nafari ayol kishi (6-diagramma).




**6-diagramma. Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan amaldagi maktab direktorlarining erkak va ayollar kesimidagi soni.**

Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan barcha 1712 nafar tinglovchilarning yosh va jins kesimidagi ma’lumoti 1-jadval va 7-diagrammada aks ettirilgan (7-diagramma).




**7-diagramma. Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan barcha tinglovchilar haqida yosh va jins kesimida ma’lumot.**

Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan 1101 nafar maktab direktori lavozimiga nomzodlarning yosh va jins kesimidagi ma’lumoti 8-diagrammada aks ettirilgan.

**Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan maktab direktori lavozimiga nomzodlar haqida yosh va jins kesimida ma’lumot.**




Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan 611 nafar amaldagi maktab direktorlarining yosh va jins kesimidagi ma’lumoti 3-jadval va 9-diagrammada aks ettirilgan.




Bugunga qadar kursni muvaffaqiyatli tamomlagan nomzodlarning 247 nafari maktab direktori lavozimiga tasdiqlangan. Joriy yilning fevral-noyabr oylarida menejerlik o‘quv kurslariga jami 2667 nafar tinglovchi qabul qilingan bo‘lib, bulardan **1825 nafari (68,4 %) kursni muvaffaqiyatli yakunlagan.** Shuningdek, 2024-yil dekabr oyida nomzod direktorlar uchun **128 nafar** tinglovchi qabul qilingan bo‘lib, bugungi kunda ushbu tinglovchilar dars mashg‘ulotlarini davom ettirmoqda.

Xususan, amaldagi maktab direktorlari uchun tashkil etilgan menejerlik o‘quv kurslariga jami **1054 nafar** tinglovchi qabul qilingan bo‘lib, ulardan **724 nafari (68,7%)** kursni **muvaffaqiyatli yakunlagan.** 2024-yil 1-sentabrdan menejerlik sertifikatiga ega maktab direktorlariga **5 yil** davriylikda **50%,** direktor o‘rinbosarlariga esa **30% miqdorida ish haqiga qo‘shimcha ustamalar to‘lanadi.**

**− Hamkorlik, maqsad va kelgusi rejalar haqida ham to‘xtalib o‘tsangiz.**

− Kelgusida onlayn kurslarni tashkil etish, direktorlarni xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborish, menejerlik o‘quv kurslarini dual (15+15) ta’lim yo‘nalishida yo‘lga qo‘yishni maqsad qilganmiz. Shuningdek, menejer yo‘nalishida faoliyat olib boruvchi professorlar sonini oshirib, yillik kvotalar sonini ko‘paytirish, hududlarda ham sayyor kurslar tashkil etish rejalarimiz bor.

“Ma’rifat” muxbiri
Fayoza AVLAYEVA suhbatlashdi.

Siz nima deysiz?

# Samimiyat va hurmatga qurilgan munosabat – muvaffaqiyat garovi!

O‘qituvchi o‘quvchining ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga ko‘mak beruvchi shaxs. Yaxshi o‘qituvchi o‘quvchiga shaxs sifatida hurmat bilan yondashadi, uni tushunishga harakat qiladi va individual ehtiyojlarini e’tiborga oladi. Bu holat o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, shuningdek, akademik muvaffaqiyatlarini yuksaltiradi.

Darsda o‘qituvchining ishtiroki faqat nazariy bilimlar berish bilangina cheklanib qolmaydi. Aksincha, o‘quvchining intiluvchanligini qadrlab, kichik yutuqlari uchun rag‘batlantirib, xato qilganda undan to‘g‘ri xulosa chiqarishga undashi kerak. Shuningdek, o‘qituvchining rahbarlik qobiliyati va sabr-toqati ham o‘quvchilarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun o‘qituvchi samimiyat, sabr va maqsadli yondashuvni namoyon etishi kerak. Ko‘p hollarda o‘quvchi o‘qituvchidan nafaqat ilm, balki hayotga nisbatan ijobiy qarashlarni ham o‘rganadi. Avvalgi maqolam(“Ta’lim – fidoyi ustozlarga muhtoj!”, “Ma’rifat”, 2024-yil, 3-aprel)da aytganimdek, o‘zi salbiy fikrlaydigan, bo‘lar-bo‘lmas narsalardan noliydigan o‘qituvchi o‘quvchilar qalbiga hayotga muhabbat, insonlarga marhamat ko‘rsatish kabi ezgu tuyg‘ularni joylay olmaydi. Zero, baxtli o‘qituvchi – baxtli o‘quvchilarni tarbiyalaydi!

O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida samimiy munosabatlar bo‘lishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunda o‘qituvchining yuqori darajadagi emotsional intellekti muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchining kayfiyati, unga bo‘lgan munosabat va uning ehtiyojlari haqida tushuncha hosil qilishi o‘qituvchi o‘z ishini yanada samarali bajarishiga yordam beradi. Agar u o‘quvchilarining holatini diqqat bilan kuzatsa va doimiy qo‘llab-quvvatlasa, ularning muvaffaqiyatga erishishiga bevosita ulkan ta’sir o‘tkazishi mumkin.

O‘quvchi o‘qituvchining so‘zlari, harakatlaridan ko‘proq ta’sirlanadi. Har bir ishida to‘g‘rilik, mehnatsevarlik va qat’iyatlilikni namoyon eta olgan o‘qituvchining fikrlariga o‘quvchilar quloq soladi, tavsiyalariga amal qiladi. Shuningdek, o‘quvchi o‘qituvchidan faqat fan haqida maslahat olishni kutib qolmaydi, balki hayotdagi muhim qarorlar yuzasidan ham maslahat so‘ray boshlaydi. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida chuqur ishonch shakllanishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘zgarib o‘qituvchilardan yangi metodlar, texnologiyalar va o‘qitish uslublarini qo‘llashni talab qilmoqda. Bunda pedagogning yangi bilimlarni tez o‘zlashtirishi va darslarini turli shakllarda yetkazish usullarini ishlab chiqishi juda muhimdir.



Ta’kidlash joizki, ingliz tili fani o‘qituvchilarining roli, ayniqsa, bugungi globallashgan dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tilning faqat fan sifatida emas, balki kommunikatsiya va xalqaro aloqalar uchun zarur vosita sifatida ham ahamiyati ortib bormoqda. Shu bois, o‘qituvchi o‘z darslarini interaktiv, samimiy va ilhomlantiradigan darajada olib borishi kerak. Fan o‘qituvchisi sifatida har bir darsni **“diqqat markazida – o‘quvchi”** va **“o‘yinlashtirilgan mashg‘ulotlar”**, **“guruhlarda ishlash”**, **“juftliklarda ishlash”** tarzida tashkillashtirish tavsiya etiladi. Chunki bunday darslarda o‘quvchilar bilim olish bilan chegaralanmay, darsdan rohatlanadi hamda darsni faqat majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli va hayajonli jarayon sifatida ko‘rishni boshlaydilar.

O‘qituvchining eng katta vazifasi – o‘quvchining potensialini kashf etish va unga to‘g‘ri yo‘lni topishda yordam berishdir. Har bir o‘quvchi o‘qituvchisi tomonidan qadrlanish, hurmatga sazovor bo‘lish va uni o‘zgacha ko‘zda ko‘rishlarini istaydi. Demak, o‘qituvchilik – bu nafaqat fan o‘rgatish, balki o‘quvchining butun hayotiga ta’sir qilishdir. O‘qituvchining motivatsiyasi, samimiyligi va yuksak axloqiy qadriyatlari o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Zero, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiyat va hurmatga qurilgan munosabat – muvaffaqiyat garovidir!

Shohista HAMDAMOVA,
Termiz shahridagi Prezident maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi

Ta’lim-tarbiya chorrahasida

Yaqinda Yunusobod tumanidagi 274-maktabda ilmiy-amaliy seminar o‘tkazildi. Unda pedagogika fanlari doktori, professor, “Metodist” jurnali bosh muharriri Qunduzxon Husanboyeva, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari Shohrux Abdurayimov, Jamoliddin Nurmuhammadov, Toshkent shahar MMTBB o‘quv ta’lim jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar bo‘limi metodisti Feruza Umirova hamda poytaxtimizdagi maktablarning 150 nafar ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi ishtirok etdi.

Seminarda Qunduzxon Husanboyeva “Maktab adabiy ta’limining yetakchi tamoyillari” mavzusida ma’ruza o‘qidi. Ma’ruzada o‘quvchi shaxsini birinchi darajaga ko‘tarish, uni nafaqat subyekt, balki iste’molchi darajasida qabul qilish lozimligi alohida ta’kidlandi, shuningdek, asar qahramonlariga ijobiy yoki salbiy obraz deb emas, odam deb qarash va ularning shodlig-u qayg‘usiga sherik bo‘lish, bunda o‘qituvchi mahorati asosiy o‘rinda turishi, adabiyot darsi – ko‘ngil darsi ekanligi nazariy, amaliy, pedagogik-psixologik jihatlardan asoslab berildi.

Jamoliddin Nurmuhammadov yangilangan 5-sinf “Adabiyot” darsligidagi yetakchi g‘oyalar, o‘zgarishlar, ularni amalga oshirish jarayoni va o‘quv materiallari ustida ishlash metodikasi borasida so‘zlab, o‘qituvchilarning darslik bilan bog‘liq savollariga javob berdi.

Shohrux Abdurayimov esa bir qator maktablarda tajribadan o‘tkazilayotgan yangi baholash tizimi, uning afzalliklari borasida taqdimot o‘tkazdi. Ta’lim amaliyotida o‘qituvchilar duch kelayotgan anglashilmovchiliklar haqida gapirdi. Tushunmovchiliklarni bartaraf etishga oid metodik tavsiyalar berdi.

Mutaxassislarga bir qancha savol bilan murojaat qildik:

*– Qunduzxon opa, ta’lim tamoyillari pedagogik amaliyotni to‘g‘ri tashkil etish ehtiyoji natijasida vujudga kelganini yaxshi bilamiz. Bu tamoyillar o‘qitish jarayoniga qo‘yiladigan talablar majmuasidir. Metodist-mutaxassis sifatida adabiyot o‘qituvchilari uchun amal qilinishi shart bo‘lgan tamoyillardan qaysilarini alohida ta’kidlaysiz?*

**Qunduzxon Husanboyeva:**

– Adabiyot darslarini tashkil etishda o‘qitishning hayot bilan aloqadorligi tamoyili yetakchi o‘rinda turadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga savol-topshiriqlar berishi bilan bu jarayonga rahbarlik qiladi. O‘quvchilar esa adabiy qahramonlar timsoli va asarda ifodalangan voqealarni tahlil qilish orqali hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan har xil hodisalarning asosini topishni o‘rganadi. O‘quvchi olgan bilimlarini hayotda qo‘llashni o‘rgansin va mustaqil xulosa chiqarsin. Shunda berilgan bilim o‘quvchi xotirasidagina emas, tafakkuri va ruhiyatiga o‘rnashib, uning ko‘ngil mulkiga aylanadi. O‘quvchilar adabiy qahramonlar shaxsi va hayotini tahlil qilish asnosida, ularning xato va kamchiliklari, tutumlari tadqiqi misolida o‘zlarini o‘zlari tarbiyalab boradi. Buning uchun o‘qituvchi ularni asarda ilgari surilgan hayotiy, badiiy, ma’naviy va axloqiy haqiqatlarga to‘g‘ri yo‘naltirishi kerak.

Yana bir tamoyil o‘quvchiga mustaqil faoliyat uchun topshiriqlar berishga asoslanadi. Bu tamoyil uy vazifasini so‘rash, turli mustaqil ishlarni yalpi yoki guruh tarzida bajartirish orqali amalga oshiriladi. Ishlar ijodiy yoki yarim ijodiy tarzda taqdim etiladi. 3-4 daqiqada bajariladigan qisqa muddatli mustaqil ishlar ham o‘quvchini faollashtiradi. Shuningdek, ta’limni individuallashtirish, oldinni ko‘ra bilish, o‘quvchiga kashf etish hissini tuydirish tamoyillari ham mavjud. Bu tamoyillarning har biriga adabiyot o‘qitish kechimida amal qilinadigan va ularga tayanib ish ko‘riladigan bo‘lsa, adabiyot darslarining samaradorligi ortishi hamda o‘quvchilarning ma’naviy kamolotiga maksimal darajada xizmat qilishi aniq.

*– Shu o‘rinda pedagogik hamkorlikni ta’minlash borasida fikringizni bildirsangiz.*

**Qunduzxon Husanboyeva:**

– Ta’lim tizimidagi pedagogik hamkorlik tamoyilini o‘qituvchi va mutaxassislar biroz boshqacha tushunishmoqda. Pedagogik hamkorlik oila, jamoatchilik va maxsus tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashni nazarda tutyapti. Ta’lim jarayonidagi tashkiliy ishlarda ham bunday hamkorlik kerak. Lekin darsdagi pedagogik hamkorlik deyilganda, xususan, adabiyot darslarida ikki subyekt – o‘qituvchi va o‘quvchi, ayni zamonda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati nazarda tutiladi. O‘qituvchi buyruq va talablarni kamaytirib, o‘quvchilarning hamkorlikda faoliyat olib borishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishi, o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi taqozo etiladi. Adabiyot darslarini to‘g‘ri tashkil etishda o‘qituvchining asosiy vazifasi asarni ifodali, ta’sirli o‘qish, asardagi haqiqatlarni savol yoki topshiriqqa aylantirish, bu bilan asardagi yetakchi g‘oya va fikrlarga o‘quvchilar e’tiborini qaratib, javoblar va fikrlar mantig‘i, mustaqilligi, asoslanganligi, tanqidiylik darajasini nazorat qilishdan iborat.

*– Xuddi shu tamoyillardan kelib chiqqan holda adabiyot darslarida o‘quvchini qanday baholash kerak? Shunday o‘quvchilar bor – o‘qish tezligi, ifodali o‘qishi sust, dars tayyorlamay keladi. Lekin ular mustaqil fikrlay oladi.*

**Qunduzxon Husanboyeva:**

– Asar tahlili davomida mustaqil fikr bildirayotgan o‘quvchini rag‘batlantirib, unga yomon baho qo‘yishdan uzoqlashish kerak. Adabiyot darsi o‘quvchiga bilim bermaydi, unda ko‘ngil tarbiyalanadi.

*– 5-sinf adabiyot darsligi yangilan-*

# Adabiy ta’lim tamoyillari va baholashning yangi tizimi

*di. Uni amaliyotga tatbiq etishda nimalarga e’tibor berish kerak?*

**Jamoliddin Nurmuhammadov:**

– O‘quv dasturida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, adabiyot fanini o‘qitish metodikasida o‘quvchilar faolligi, ularning bilimni tayyor holda passiv qabul qilmasligi, balki darsda ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga, badiiy matn talqinlarini yaratish orqali fanga oid kompetensiyalar va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon yaratilishi asosiy tamoyil hisoblanadi. Adabiyot o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni badiiy so‘zdan ta’sirlanish, uning jozibasini his etishga o‘rgatish, milliy va jahon adabiyotining ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari haqida tasavvurlarini oshirish, badiiy matnni tahlil qilish, asardan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Adabiyotning boshqa fanlar, jumladan, tasviriy san’at, musiqa, informatika va axborot texnologiyalari, tabiiy fanlar bilan integratsiyasiga ahamiyat berish kerak.

*– So‘nggi vaqtlarda sinfdan tashqari o‘qishga e’tibor kamaydi. Buning oldini olish uchun qanday tavsiyalar berasiz?*

**Jamoliddin Nurmuhammadov:**

– Badiiy adabiyotga yaqinlik sinfdagi mashg‘ulotlar bilan chegaralanmasligi kerak. O‘qituvchilar har o‘quv choragi davomida kamida bir marta yalpi suhbat o‘tkazishi, o‘quvchilarning mustaqil o‘qigan asarlari bo‘yicha fikr-mulohazalarini eshitishga, taqdimotlarini muhokama qilishga vaqt ajratishi tavsiya qilinadi. Sinfdan tashqari o‘qishni tashkillashtirishda o‘qituvchi tashabbuskor bo‘lmog‘i, o‘quvchilarning yoshiga mos yangi chiqqan badiiy asarlar bilan tanishishni va bolalarga tavsiya etishni unutmasligi lozim. Sinfdan tashqari o‘qilgan yangi asarlar o‘quvchilarni ijodkorlikka undaydi, bugungi voqelik tufayli tug‘ilgan hayotiy savollarga javob topishga o‘rgatadi. Bu esa o‘qitishning dars shaklidan tashqari fakultativ mashg‘ulotlar, adabiy kecha va bahslar, ijodiy uchrashuvlar, to‘garak mashg‘ulotlari, ko‘rgazmalar, muzeylarga sayohat, kitobxonlar anjumani singari ish turlaridan ham foydalanish mumkinligini ko‘zda tutadi.

*– Shohrux Abdurayimov, respublikamizning 1000 dan ortiq maktablari yangi baholash tizimiga o‘tdi. Sir emas, bu jarayon birmuncha qiyinchiliklar bilan qabul qilinyapti. Formativ baholash metod va texnologiyalarida bir daqiqalik insho, refleksiyalar, strategik savollar berish texnologiyalarini qanday amalga oshirish mumkin?*

**Shohrux Abdurayimov:**

– Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 1500 ta maktabda bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilmoqda. Ushbu baholash tartibi an’anaviy baholashdan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Avvalo, baholash jarayoni formativ va summativ baholashga ajratiladi. Bunda formativ baholash o‘quvchilarning o‘zlashtirishini muntazam kuzatish, dars jarayoniga motivatsiyasini oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Aslida formativ baholash – o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar va ta’lim jarayonini uzluksiz kuzatish va xatolar ustida ishlash jarayoni. Bunda bir qancha baholash usul, metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Jumladan, *“nazorat varaqalari”, “baholash rubrikalari” texnologiyalari, “refleksiyalar”, “strategik savollar berish”, “bir daqiqalik insho”, “do‘stingizga o‘rgating”, “o‘ylang va baham ko‘ring”* usullari.

*“Strategik savollar berish” usuli.* Bu usul o‘quvchilar bilan kundalik dars mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilardan mavzu bo‘yicha yoki o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashda aniq ma’lumotlarni bilishi, topa olishi, tushunishi emas, balki mushohada qilib javob beriladigan “qanday qilib?” va “nima uchun?”, “nima maqsadda?” kabi yuqori darajadagi savollarga javob berish talab etiladi. Bu orqali o‘quvchilarning mavzuni yuksak yoki quyi darajada o‘zlashtirgani aniqlanadi.

Xabaringiz bor, xalqaro baholash dasturlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarimizning aksariyatida baho berish, xulosa qila olish, kreativlik kabi yuqori kognitiv ko‘nikmalar yaxshi shakllanmagan. Shuning uchun formativ baholash jarayonida ham, summativ baholashlarda ham o‘quvchilarning yuqori ko‘nikmalarini baholashga asosiy e’tibor qaratishimiz kerak.

*“Bir daqiqalik insho” usuli.* Bu usulda o‘quvchiga mavzu bo‘yicha savollar beriladi. Savollar qisqa va aniq bo‘ladi. O‘quvchilarga savol yuzasidan fikrlarini yozish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. O‘quvchilardan yozgan ma’lumotlarini o‘qib berishi so‘raladi. Javoblarga qarab ular mavzuni qay darajada tushungani aniqlanadi.

*Nazorat varaqalari(check list)* – o‘quvchilar ta’lim olish jarayonida o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar ro‘yxati aks etgan va u asosida o‘quvchi muvaffaqiyati tekshiriladigan varaqa. Ushbu baholash texnologiyasi o‘quv jarayoni davomida biror mavzu yoki bob tugaganda o‘tkaziladi. Mavzu yoki bob bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan o‘quv natijalari ro‘yxati shakllantirilib, u asosida topshiriqlar tuziladi. Shundan so‘ng ular asosida nazorat varaqasi ishlab chiqiladi. Bunda jadvaldan foydalanilib, o‘quvchilar ism-familiyasi chap tomondagi birinchi ustunga yoziladi, yuqori birinchi qatorga esa bilim va ko‘nikmalar ketma-ket yoziladi. O‘quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarishiga qarab ustunlar belgilanadi. Masalan:

**ONA TILI FANIDAN “MA’NODOSH SO‘ZLAR VA ULARNING QO‘LLANISHI” MAVZUSI BO‘YICHA NAZORAT VARAQASI**

1-jadval

| O‘quv natijalari O‘quvchilar F.I.O. | Sinonimlar qoidasini biladi. | Sinonim turlarini farqlay oladi. | Leksik sinonimga misollar keltira oladi. | Nutqiy leksik sinonimlarga misollar keltira oladi. | Nutqda leksik sinonimlar bilan bog‘liq xatolarni topib, to‘g‘rilay oladi. | Yozma matnda sinonimlardan to‘g‘ri foydalanadi. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| A o‘quvchi | | | | | | |
| B o‘quvchi | | | | | | |
| D o‘quvchi | | | | | | |
| v.b. o‘quvchi | | | | | | |

Umuman, formativ baholash usul va texnologiyalaridan foydalanib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi tekshirilib, aniqlangan bo‘shliqlar yuzasidan har bir o‘quvchiga zaruriy fikr-mulohazalar hamda natijalarni yaxshilash bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi.

*– Summativ baholashning maqsadi ta’lim tizimini yaxshilash uchun qarorlar qabul qilish, ta’lim tizimini nazorat qilish, o‘qituvchilar faoliyatini baholashdan iborat deb belgilangan. Adabiyot darsida testdan foydalanish orqali o‘quvchilarni baholash o‘zini oqlaydimi? Bunda natijalar ishonchli bo‘ladimi? Negaki, testga 40 ball beriladi va bu orqali o‘quvchi nutqi, kitobxonligi, ifodali o‘qishi, she’r yodlashi kabi muhim jihatlar chetda qolayotgandek.*

**Shohrux Abdurayimov:**

– Bilimni baholashning yangi tartibida o‘quvchilarning fanlar yuzasidan egallagan bilim va ko‘nikmalari blum taksonomiyasi bo‘yicha baholanishi nazarda tutilgan. Xabaringiz bor, summativ baholash ikkiga ajratilgan: bob bo‘yicha summativ baholash va choraklik summativ baholash. Bob bo‘yicha summativ baholashda o‘quvchining test topshiriqlari yordamida baholab bo‘lmaydigan yuqori kognitiv ko‘nikmalari loyiha ishlari, amaliy va ijodiy topshiriqlar yordamida baholanadi. Choraklik summativ baholashda esa bilish, qo‘llash va mulohaza qilish ko‘nikmalari baholanadi. Xuddi shunday, adabiyot fanidan ham ijodiy ko‘nikmalarni bob bo‘yicha summativ baholash jarayonlarida baholash maqsadga muvofiq. Yana shuni ham ta’kidlamoqchimanki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili va adabiyot o‘quv fanlarini o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarning ona tilidan foydalanish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini sifatli shakllantirish, bo‘lajak shoir va yozuvchilarni tarbiyalash emas, nazarimda.

*– Baholashda ballarni a’lo, yaxshi, qoniqarli deb “5”, “4”, “3” baholarga aylantirish shartmi? 99 ball olgan o‘quvchiga ham, 86 ball olgan o‘quvchiga ham “5” baho qo‘yish to‘g‘rimi? Axir 13 ballik farq bor-ku.*

**Shohrux Abdurayimov:**

– Bu boradagi fikrlaringizni qo‘llab-quvvatlayman. Amalda *tartiblash, baholash shkalasidan* foydalanmoqdamiz, bu shkalaning eng katta kamchiligi natijalar sezuvchanligi past bo‘ladi. Ya’ni bir xil baho olgan o‘quvchilarning farqi katta. Bu esa ularning e’tirozlariga, qayd etgan natijalaridan qoniqmasligiga sabab bo‘ladi. Yangi baholash tartibida esa reyting baholash shkalasidan foydalanilmoqda. Bu baholash shkalasidan foydalanishning afzalligi natijalarning sezuvchanligi yuqoriligida. Biroq reyting shkalasini yana “5”, “4”, “3” baholarga aylantirish samarali emas, bizningcha. Agarda reyting ballarini bahoga aylantirish zarurati bo‘lsa ham, bu ko‘rinishda emas, quyidagi ko‘rinishda baholarga aylantirishni tavsiya etamiz.

| Ball | Sifat darajasi | Izohi |
|---|---|---|
| 96 – 100 ball | A+ | a’lo |
| 86 – 95 ball | A | |
| 81 – 85 ball | B+ | yaxshi |
| 71 – 80 ball | B | |
| 66 – 70 ball | C+ | o‘rta |
| 56 – 65 ball | C | |
| 41 – 55 ball | D | qoniqarli |
| 0 – 40 ball | F | qoniqarsiz |

Umid qilamizki, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan mavjud holat va shart-sharoitlar inobatga olinib, tajriba-sinov jarayonida yuzaga kelgan muammolar bartaraf etilib, yangi baholash tartibi mukammal tarzda to‘liq joriy etiladi.

Mahmuda VALIYEVA,
Yunusobod tumanidagi
274-maktab o‘qituvchisi

Dolzarb mavzu

Yurtimizda zamonaviy ta’limning taraqqiyoti va takomillashuvining yangi bosqichi davrida har bir fuqaroning ta’lim olish huquqlarini ta’minlash maqsadida ta’lim muassasalarini zamon talablariga moslashtirish, pedagoglarning kasb mahoratini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

# XAVFSIZLIK – SAMARALI TA’LIMNING ASOSI

Bolalarning ta’lim-tarbiyasi, kamol topishi uchun qulay yashash sharoitlarini ta’minlash, ularni zo‘ravonlik va qo‘pol munosabatlardan himoya qilish har qanday davlat uchun ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalaridan biridir. Biroq hozirgi rivojlangan zamonda ham butun dunyo bo‘ylab bolalar o‘z oilalarida, jamiyatda, ta’lim muassasalarida, masalan, o‘z sinfdoshlari, maktabdoshlari yoki o‘qituvchilari tomonidan zo‘ravonlikka duch kelishadi.

O‘zbekistonda har qanday zo‘ravonlik harakatlarining oldini olish maqsadida 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun 2025-yil may oyidan kuchga kiradi. Mazkur hujjatning 3-moddasida shunday deyilgan: “Bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga, sha’niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo‘lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi”.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, dunyoda 1 milliardga yaqin bola jismoniy, jinsiy, ruhiy zo‘ravonlik bilan to‘qnashadi va eng achinarlisi, jabrlangan bolalarning qariyb 80 foizi bu haqida hech kimni xabardor qilmaydi.

Mazkur masalaga bag‘ishlangan uzoq kutilgan qonun joriy yilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan edi. Hujjat bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning aniq ta’rifini beradi hamda jismoniy, psixologik va jinsiy zo‘ravonlik kabi turli xil tajovuz shakllaridan, shuningdek, bolalarga beparvolik, ekspluatatsiya va bezorilik (shu jumladan kiberbulling)dan himoya qilishni o‘z ichiga oladi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sifatli ta’lim tizimini yaratishga ham to‘sqinlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiyot va hududiy tadqiqotlar instituti ma’lumotlariga ko‘ra, zo‘ravonlik turlari orasida qo‘rqitish o‘quvchilarning o‘quv natijalariga juda katta ta’sir ko‘rsatishi, buning natijasida matematika, o‘qish va tabiatshunoslik kabu fanlardan past baholarga sabab bo‘lgani aniqlangan.

2022-yildan O‘zbekistonning 15 yoshli o‘quvchilari ilk bor PISA xalqaro baholash bo‘yicha imtihonlarda ishtirok etib, matematika bo‘yicha 81 davlat orasida 72-o‘rinni, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi bo‘yicha 80-o‘rinni egalladi. Tadqiqotda 202 ta maktabdan 7293 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

PISA – xalqaro baholash dasturi ta’lim natijalarini har tomonlama tahlil qiladi va mavjud omillarni xolisona baholash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, maktab muhiti o‘quvchilar muvaffaqiyatiga qanday ta’sir qilganini baholash uchun ko‘p o‘lchovli tahlildan foydalanildi.

## Ta’lim jarayoniga nima to‘sqinlik qiladi?

Ta’lim muassalarida bir martalik zo‘ravonlik harakatlari yoki doimiy tahqirlash, kamsitish va muntazam ta’qib holatlari ham uchraydi. Zo‘ravonlik jismoniy, jinsiy va og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu jarayonda gender masalasi va moddiy manfaatlar ham mavjud. Qanday shaklda va sababda bo‘lmasin bunday holatlar o‘zidan keyin har doim jabrlanuvchilarda psixologik jarohat keltirib chiqaradi.

Garchi zo‘ravonlik ko‘rinishlari keng tarqalgan, ba’zi holatlar ovoza bo‘lgan va hatto badiiy adabiyotlarda tasvirlangan bo‘lsa-da, uzoq yillar davomida maktablardagi zo‘ravonlik muammosiga yetarli e’tibor qaratilmagan. Maktablarda bezorilik haqidagi birinchi tizimli tadqiqotlar o‘tgan asrning 70 – 80-yillarida Norvegiya va boshqa Skandinaviya mamlakatlarida boshlangan.

Maktab muhitidagi muammolar, xavfsizlikning ta’minlanmaganligi, zo‘ravonlik ta’lim olishga to‘sqinlik qiluvchi omillardir.

Makroiqtisodiyot va hududiy tadqiqotlar instituti tadqiqotlariga ko‘ra, darsga qatnashmaslik(26 foiz), spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste’mol qilish(26 foiz) va o‘qituvchilarning darsga tayyorgarlik ko‘rmasligi(25 foiz) ta’limga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maktab muhiti bilan bog‘liq yana boshqa omillar – bezorilik(20 foiz) va o‘qituvchilarning haddan ortiq qattiqqo‘lligi(8 foiz) ham o‘quv jarayonlariga xalaqit beradi. Bundan tashqari, maktablarda turli ziddiyatlar(31 foiz), bir o‘quvchining boshqasiga tan jarohati yetkazishi va haqorat qilishi(har biri 21 foiz) va bezorilik bilan bog‘liq boshqa jihatlar ham aniqlangan.

## Maktabda o‘zingizni xavfsiz his qiling!

Respondent o‘quvchilarning 20 foizi maktab yo‘lagi, oshxonasi va hojatxonasi kabi joylarda o‘zini xavfsiz his qilmasligini, 15 foizi esa “uyga boradigan yo‘l xavflidir”, deb tasdiqlagan.

Shuningdek, so‘rov natijalariga ko‘ra, 19 foiz respondent o‘quvchi qo‘rqitish holatlariga duch kelgani, 16 foizi maktab hududida tartibsizliklar natijasida tan jarohati olgani, 14 foizi o‘quv qurollariga shikast yetgan holatlarni, 9 foizi maktabda bezorilar to‘dasi borligini, 6 foizi o‘tkir tig‘li quroli borligini, 21 foizi o‘quvchilar o‘rtasida noma’qul so‘zlar ishlatilishini, 17 foizi maktab hududida o‘quvchilarning o‘zaro mushtlashuvlarini va 16 foizi boshqa turdagi kamsitish holatlari haqida xabar bergan.

Bu ma’lumotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), PISA va Qozog‘iston ma’lumotlaridan ancha yuqori. Qayd etilishicha, har yettinchi o‘quvchidan kamida bittasi maktabda o‘zini xavfsiz his qilmaydi va zo‘ravonlik yoki qo‘pol munosabatga duch kelgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda tez-tez haqoratlanadi (19,1 va 15,4 foiz). Aniqlanishicha, immigratsion oilalarning bolalari bunday muammolarga mahalliy oilalarga qaraganda 3,8 foiz ko‘proq yo‘liqadi.

## Tadqiqot natijalariga ko‘ra

Maktab bezoriligi nafaqat bolalarning jismoniy salomatligiga, balki ularning psixologik holatiga ham jiddiy tahdid soladi. O‘z tengdoshlari orasida “quloq” bo‘lishdan qo‘rqib, qurbonlar kamdan-kam hollarda yordam so‘rashadi. Psixologik zo‘ravonlik bolaning maktabga borishdan bosh tortishiga olib keladi, u o‘zi uchun eng dahshatli qarorni qabul qilishga – o‘z joniga qasd qilishgacha tayyor bo‘ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) ma’lumotlariga ko‘ra, maktabdagi zo‘ravonlik va tovlamachilik “mamlakat bo‘ylab yoshlar orasida zo‘ravonlik ko‘rsatkichlari ortishining asosiy sabablaridan biri bo‘lib, u aksariyat hollarda maktab o‘quvchilarining o‘z joniga qasd qilishiga olib keladi”.

O‘zbekistonda o‘quvchilarning 4,2 foizi boshqa o‘quvchilar tomonidan qo‘rqitilgani sabab ularga pul berganliklarini aytishgan (OECDga ko‘ra o‘rtacha – 2,1 foiz, PISA – 3,9 foiz, Qozog‘iston – 2,1 foiz).

Institut mutaxassislari qo‘rqitish orqali tovlamachilik ta’lim samaradorligiga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Bunday bezorilikdan aziyat chekkan o‘quvchining baholari matematikadan o‘rtacha 57,6 ballga, o‘qishdan 67,4 ballga, tabiiy fanlardan 67 ballga pasaygan. Jismoniy zo‘ravonlikka (masalan, urish, turtish va h.k.) uchragan o‘quvchining baholari esa matematikadan 41,3 ball, o‘qishdan 44,6 ballga va tabiiy fandan 44,6 ballga tushib ketgan. Shuningdek, bullingning boshqa barcha turlari o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha o‘rtacha bahosini 14,3 foizdan 43,7 foizga tushiradi.



## Barchaga qulay muhit yaratish lozim

Agar maktabda zo‘ravonlik o‘z vaqtida to‘xtatilmasa, u bolalar va o‘smirlar uchun oddiy holga aylanib, butun umri davomida ularga hamroh bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, maktab rahbariyati, har bir o‘qituvchi maktabda zo‘ravonlikning oldini olishga hissa qo‘shishi maqsadga muvofiq.

Ta’lim muassasalarida zo‘ravonlikning oldini olishning eng muhim chora-tadbirlaridan biri o‘quvchilarda o‘zaro sog‘lom munosabat o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Buning uchun bolalarga o‘z xatti-harakatlarini boshqarish, tengdoshlari va kattalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, manipulyatsiyani anglash va tashqi salbiy ta’sirlarga qarshi tura olish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini o‘rgatadigan o‘quv dasturlarini kiritish kerak.

O‘zbekistonda ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiladigan asosiy omillardan biri ham aynan maktablardagi muhit – bulling, xavfsizlik ekanligini aniqlandi. Shu bois, O‘zbekistonda bezorilik holatlarini kamaytirish maqsadida Finlyandiyaning ijobiy tajribasidan kelib chiqib o‘quvchilar o‘rtasida bezorilikka qarshi KiVa dasturini amalga oshirish taklif etilmoqda.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, dasturning samaradorligi keng ko‘lamli tadqiqotlar asosida ilmiy jihatdan tasdiqlangan. KiVa jamoasi tomonidan qo‘llangan metod sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan bo‘lib, zo‘ravonlikdan jabrlanganlarning 98 foiziga holatni hal qilish yoki yumshatishga yordam bergan. Misol uchun, dastur Yangi Zelandiyada joriy etilganidan bir yil o‘tgach maktablardagi bezorilik darajasi 21 foizga kamayadi.

Dastur asosiy uch qismdan iborat: profilaktika, aralashuv va monitoring. Profilaktika choralari barcha o‘quvchilar va o‘smirlarni qamrab olib, zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan. KiVa har yili o‘quvchilar va xodimlar o‘rtasida onlayn so‘rovlar o‘tkazadi va maktablarga zo‘ravonlikni monitoring qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar taqdim etadi. Bu maktablarga zo‘ravonlikka qarshi kurash choralarini yaxshilash imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bunday dasturlarda jinsiy va reproduktiv salomatlik, xulq-atvor bilan bog‘liq masalalar ham muhokama qilinishi maqsadga muvofiq. Bu o‘quvchilarga insoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish, gender tengligi va xilma-xilligini o‘rganish, shaxs sifatida rivojlanish, o‘zini hurmat qilish va ishonchini oshirishga yordam beradi.

Yelena KONSTANTINOVA

Muallim tabrigi

# Yangi yil – yangi umidlar, yangi muvaffaqiyatlar

**Do‘smurot OCHILOV, Karmana tumanidagi 21-maktab o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi:**



– 39 yildan buyon fizikadan dars beraman. Mana shu yillar juda muhim va o‘ziga xos bo‘ldi. Ta’lim tizimidagi islohotlar tufayli tabiiy fan darsliklarida uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinayotgan qonun-qoidalarni o‘quvchilarga sodda hamda hayotiy qilib tushuntirish metodikalarini ishlab chiqish bilan bir qatorda, fizika va kimyo darsliklarida bir-birini inkor etib kelayotgan tushunchalarni yagona tushunchaga birlashtirishga erishdim.

Yuzlab fizika, kimyo, biologiya o‘qituvchilari, tibbiyot xodimlari, muhandislar, texnologlarning ustozi bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldim. Bundan tashqari, roppa-rosa 30 yildan buyon fizika va kimyo fani darsliklarini yaratishga o‘z hissamni qo‘shib kelmoqdaman. O‘quvchilarim ham tuman, viloyat, respublika fan olimpiadasi g‘olibi bo‘lishmoqda, ularni olimpiadalarga tayyorlash mobaynida o‘zim ham tuman, viloyat, respublika o‘qituvchilar tanlovlari g‘olibi, o‘tgan o‘quv yilida esa Vazir ustamasini olishga muvaffaq bo‘ldim.

Har yilning o‘z ahamiyati bor. Kelayotgan yilda bizni yangi imkoniyatlar kutmoqda. O‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga joriy etish va o‘quvchilarimizni yangi ilmiy tadqiqotlarga jalb etish niyatidamiz. Shuningdek, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali ta’lim sifatini yanada oshirish rejamiz bor.

Barcha ta’lim fidoyilarini yangi yil bilan tabriklayman! Sizlarning mehnatingiz, ko‘rsatayotgan jonbozligingiz ta’lim sohasida katta o‘zgarishlar yaratmoqda. Kelgusi yilda birgalikda ko‘plab yangi g‘oyalar va loyihalarni amalga oshirishimizga umid qilaman.

**Abduqodir SHAMSIDDINOV, Marhamat tumanidagi 47-IDUM o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq o‘qituvchisi:**



– O‘tayotgan har yil biz ustozlarning mahoratiga mahorat, ilmiga ilm qo‘shadi. Yillar bizni toblabgina qolmay o‘z mevasini ham berdi. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda bilimli, keng dunyoqarashli, salohiyatli va jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlar muhim rol o‘ynaydi. Bu kadrlarni tayyorlash esa maktab ostonasidan boshlanadi. Shuning uchun ham muhtaram Prezidentimiz xalq ta’limiga juda katta e’tibor bermoqda. Eng quvonchlisi o‘qituvchilik kasbi obro‘li kasblar qatoriga qo‘shildi. 2023-2024-o‘quv yilida Prezidentimiz Marhamat tumaniga tashrifi davomida bu yerdagi ziyolilar bilan uchrashuv o‘tkazib, xalq ta’limi xodimlarini ruhlantirdi. O‘zim ta’lim berayotgan 47-IDUM uchun ham bu yil omadli keldi. O‘qituvchi uchun o‘zining yutug‘idan ko‘ra shogirdlarining yutug‘i quvonchliroqdir. O‘quvchilarimiz fan olimpiadasida tumanda faxrli o‘rinlarni egallab, viloyat va respublika bosqichlarida qatnashdi. Ulardan Oyshaxon Sharipova, Mehribon Abduxalilova, Ziyodaxon Solijonovani faxr bilan e’tirof etish mumkin. O‘qituvchi shogirdlarimdan Xurshidbek Bo‘riyev shu o‘quv yilida “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishonini qo‘lga kiritdi. Rashidbek Bo‘riyev va Omadbek Zokirov respublika kimyo fani o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan Vazir olimpiadasida faxrli o‘rinlarni egalladi. Maktabimiz tumanda o‘tkazilgan “Xorijiy tillar eng yaxshi o‘qitiladigan maktab” musobaqasida faxrli 1-o‘rinni egalladi. O‘quvchilarimiz OTMlarga kirish natijalari bo‘yicha ham tuman va viloyatda oldingi o‘rinlarda turadi. Kuni kecha Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi Shohrux To‘raxonov kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori bo‘ldi. Bunday quvonchli xabarlar har qanday ustoz yangi-yangi marralarni egallashiga kuch beradi.

Butun O‘zbekiston xalqi, xalq ta’limi xodimlarini kirib kelayotgan yangi yil bayrami bilan chin yurakdan tabriklayman. Ulug‘ ustoz degan nomga har bir o‘qituvchini yetishishini tilayman.

**Millavoy NORMETOV, Bo‘stonliq tumanidagi 44-maktab direktori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi:**



– O‘qituvchilik faoliyatimni boshlaganimga 44 yil bo‘ldi. Bu soha o‘ziga yarasha mas’uliyatli va mashaqqatli, ammo qilgan mehnatlaringiz baribir e’tirof etiladi. Sababi, katta hayotga qadam aynan maktab ostonasidan boshlanadi. Biz ustozlar esa ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishdek mashaqqatli ishning uddasidan chiqishimiz kerak.

Kasbim va bolalarni yaxshi ko‘raman. Mehnat faoliyatim davomida kelajak avlodlarimizning ilmli bo‘lishiga nafim tegayotganidan kuch olaman. Bugungi kunda ko‘plab shogirdlarim jamiyatda o‘z o‘rnini topgan. Ular orasida el-yurtga nafi tegadigan, taniqli insonlarning borligidan doim faxrlanaman.

Bu yil bitiruvchilarimizning 90 foizi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga muvaffaq bo‘lishdi. O‘tgan yili maktablar reytingi bo‘yicha maktabimiz tumanda birinchi o‘rinni egalladi. 7 nafar o‘quvchimiz esa fan olimpiadasining tuman bosqichida g‘olib chiqib, viloyat bosqichida qatnashdi. Ulardan 10-sinf o‘quvchisi Xushro‘za Tolibjonova o‘zbek tili fanidan faxrli o‘rin sohibasi bo‘ldi.

Kelgusida ham kuchim boricha soha rivojiga hissa qo‘shishga harakat qilaman. O‘zbekiston xalqini, ustozlar jamoasini yaqinlashib kelayotgan 2025-yil bilan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, ulkan zafarlar, xonadoningizga fayz-u baraka tilayman. Yangi yil barchamizga katta muvaffaqiyatlar yili bo‘lsin.

**Isomiddin MAMADALIYEV, Yangiqo‘rg‘on tumanidagi 5-maktab o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi:**



– 34 yildan buyon o‘qituvchilik kasbi, ilm-ma’rifat o‘chog‘i – maktabda faoliyat yuritaman.

Mana shu yillar davomida qanchadan qancha shogirlarga ustozlik qildim. Hozir ular iqtisodiyotimizning turli sohalarida samarali faoliyat yuritib kelishmoqda.

“Ma’rifat”, “Ta’lim taraqqiyoti”, “Namangan haqiqati”, “Murabbiy”, “Bolalar dunyosi”, “Ta’lim va tafakkur”, “Yangiqo‘rg‘on hayoti” kabi gazeta va jurnallarda ko‘plab uslubiy qo‘llanma, dars ishlanmalarim e’lon qilindi, viloyat, respublika miqyosida ommalashtirildi va amaliyotga tatbiq etildi. O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi tomonidan tashkil etilgan ekspert guruhi a’zosi, Bilim va malakalarni baholash agentligi va British Council hamkorligida o‘tkazilgan “O‘zbekistonda test texnologiyalarini rivojlantirish” loyihasida qatnashib, o‘z fanim bo‘yicha “Testolog-ekspert” sertifikati, Namangan viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi metodik xizmat ko‘rsatish “Tabiiy va iqtisodiy fanlar” yo‘nalishi a’zosi bo‘ldim. Tugayotgan 2024-yili esa Respublika MMTVning ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish bo‘yicha bo‘lib o‘tgan tadbirlarida qatnashdim. Ish tajribam viloyat miqyosida ommalashtirilib, respublikaga tavsiya etildi.

Ushbu yutuqlarim zamirida, albatta, muhtaram Prezidentimizning va hukumatimizning hozirgi kundagi ta’limga bo‘lgan e’tibori va pedagoglarga bergan cheksiz imkoniyatlari yotibdi.

Yaratilgan sharoit va imkoniyatlarga javoban kelayotgan yilda ham biz ustozlar tinmay o‘z ustimizda ishlab, yosh avlodga sifatli ta’lim berishimiz shart. Zimmamizdagi mas’uliyatni his etib, bu yo‘lda bor bilim hamda tajribalarimizni ayamaymiz.

**Ozod OTAJONOV, Hazorasp tumanidagi 32-maktab o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi:**



– 1990-yildan buyon yurtimizda ta’limga qaratilayotgan e’tibor tufayli ko‘plab yutuqlarga erishdim.

Aziz hamkasblarim, har birimiz uchun yangi yil yangi umidlar va yangi imkoniyatlarni olib kelsin. O‘tgan yil biz uchun ko‘plab sinovlar va muvaffaqiyatlarga boy bo‘ldi. Jamoamiz bilan birgalikda ko‘plab yutuqlarga erishdik, ta’lim sohasida yangiliklar kiritdik va o‘quvchilarimizning qalbida bilimga bo‘lgan qiziqishni oshirdik.

O‘qituvchi sifatida sizlarning fidoyiligingizni, sabrtoqat va mehnatingizni yuqori baholayman. Har biringiz o‘z o‘quvchilaringizning hayotida muhim rol o‘ynaysiz. Sizlar bilim berish bilan birga, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ham hissa qo‘shmoqdasiz.

Kelgusi yilda birgalikda ko‘plab yutuqlarga erishaylik, ta’lim tizimimizni yanada rivojlantiraylik. O‘zaro hamkorlikda, bir-birimizni qo‘llab-quvvatlasak, sohamizda yanada yuksak cho‘qqilarga erishamiz.

“Ma’rifat” muxbiri
Shodiyona XUSHMURODOVA
tayyorladi.

# QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI

*Ta'lim sohasida jonbozlik ko'rsatayotgan o'qituvchi va murabbiylarni, barcha yurtdoshlarimizni Yangi yil bilan muborakbod etadi.*
*Kirib kelayotgan 2025-yilga mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb nom berilgani bizni ham to'lqinlantirib yubordi.*
*Tugayotgan yilda Qoraqalpoq davlat universiteti ko'plab nufuzli xalqaro tanlovlarda yutuqlarga erishdi.*
*Albatta, bunday natijalarga ta'lim sohasi fidoyilarimizning zahmatli mehnatlari ortidan erishildi.*
*Barcha ilm ahlining ona diyorimiz gullab-yashnashi, yanada obod go'shaga aylanishini ta'minlash, Vatanimizning jahon maydonidagi nufuzi va imijini tobora mustahkamlash, xalqimiz turmushini yuksak darajaga ko'tarish borasidagi ezgu ishlarida ulkan zafarlar tilaymiz.*

2025

# QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI JAMOASI

## Yangi yilingiz muborak bo‘lsin, aziz yurtdoshlar!

## Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lib, ezgu orzularimiz ro‘yobga chiqaversin.

**Ta’lim sohasidagi yutuqlarimiz yuksalib boraversin! Biz ana shu yo‘lda siz, aziz ilm ahliga kamarbastaligimizni bildirib, barchangizga baxt-saodat, tinchlik, xotirjamlik tilaymiz!**

# 2025

# FASL TANLOVI G'OLIBLARI

## Qish fasli

| T/p | Tanlov yo'nalishi | Taklif etilayotgan maqola nomi (sanasi) | Muallif |
|---|---|---|---|
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 1. | "Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola" | PISA natijalari atrofidagi o'ylar (28-fevral) | Abduqahhor G'ANIYEV, pedagogika fanlari doktori (DSc) |
| 2. | "Pedagog-muallifning dolzarb materiali" | Sinf rahbari (10-yanvar) | Erkinjon YARASHEV, Zarafshon shahridagi 13-IDUMning fizika fani o'qituvchisi |
| 3. | "Eng yaxshi ocherk yoki esse" | Shukur Xolmirzayev ijodxonasida (13-dekabr) | Sherzod KOMIL XALIL |
| 4. | "Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif" | Ta'lim va bolalar adabiyoti (13-dekabr) | Sa'dullo QURONOV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bolalar yozuvchisi |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 5. | "Voqelikka munosib sharh yoki munosabat | O'qituvchi kitob o'qimaydimi yoki kitobga puli yetmaydi? (13-dekabr) | Guloro YUSUPOVA |
| 6. | "Mazmunli intervyu, suhbat" | Ijodkorning sehrli olami (27-dekabr) | Yusuf HAMDAMOV |
| 7. | "Sermazmun sahifa" | Bizga yangicha ta'lim tizimi zarur (24-yanvar) | Botir ORIFJONOV |
| 8. | "Samarali metodik material" | Darsni betakror lahzalarga aylantiramiz! (10-yanvar) | Rahbaroy MELIBOYEVA, Uchko'prik tumanidagi 5-maktab o'qituvchisi |
| 9. | "O'qishli badiiy asar" | Qarg'alar uchsa qaraylik (6-dekabr) | Muhayyo ALIYEVA |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 10. | "Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material" | Muammoning ildizi yoxud malakali mutaxassis orzusi (4-yanvar) | Normamat ESHONQULOV, Oltinsoy tumanidagi 63-maktab o'qituvchisi Tojinisa TURDIYEVA, Oltinsoy tumanidagi 58-maktab o'qituvchisi |
| 11. | "Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi" | Mehnatga yarasha rag'bat ham kerak (17-yanvar) | Dostonbek SHARIPOV, Nizomiy nomidagi TDPU talabasi |
| 12. | "Jozibali fotolavha yoki surat" | "Kobalt" Samarqand va Qashqadaryoga ketdi (21-fevral) | Boysafar XOLMURZAYEV |

## Yoz fasli

| T/p | Tanlov yo'nalishi | Taklif etilayotgan maqola nomi (sanasi) | Muallif |
|---|---|---|---|
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 1. | "Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola" | Keksa o'zbek nidolari (31-iyul) | Bahodir KAMOLOV, geografiya fanlari doktori |
| 2. | "Pedagog-muallifning dolzarb materiali" | Millatning ma'naviy qiyofasi (24-iyul) | Usmon JO'RAYEV, Bo'ka tumanidagi 8-maktab o'qituvchisi |
| 3. | "Eng yaxshi ocherk yoki esse" | Daraxt bir yerda ko'karadi (31-iyul) | Boqijon TO'XLIYEV, filologiya fanlari doktori, professor |
| 4. | "Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif" | Samarqandga ijod maktabi kerak! (7-avgust) | Husan KARVONLI |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 5. | "Voqelikka munosib sharh yoki munosabat | Tilak Jo'ra uy-muzeyi kimga kerak? (19-iyun) | Tillaniso NUR |
| 6. | "Mazmunli intervyu, suhbat" | Karikatura va hayot (5-iyun) | Nazokat ZAYLOBOVA |
| 7. | "Sermazmun sahifa" | Navoiyning shaxsiy kutubxonasi haqida (21-avgust) | Burobiya RAJABOVA, filologiya fanlari nomzodi |
| 8. | "Samarali metodik material" | Kreativ fikrlashga doir metodikalar (14-avgust) | Nilufar SAYDALIYEVA, Kasbi tumanidagi 2-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi |
| 9. | "O'qishli badiiy asar" | Ajoyib odam (5-iyun) | Dilbar ABDIRAIMOVA, Dehqonobod tumanidagi 32-maktabning tarix fani o'qituvchisi |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 10. | "Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material" | Adolatli dars taqsimoti… (21-avgust) | Shahnoza YANGIBOYEVA |
| 11. | "Eng yaxshi tarjima materiali" | Ishq qurboni (Herman Hesse) (24-iyul) | Marhabo SATTOROVA |
| 12. | "Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi" | Bizga o'zbek tilida kitob bering (26-iyun) | Mashhura ABDURAIMOVA, O'zJOKU talabasi |
| 13. | "Jozibali fotolavha yoki surat" | Oltin avlod izidan (21-avgust) | Muhammadbobur MAHMARAYIMOV, O'zDJTU talabasi |

## Bahor fasli

| T/p. | Tanlov yo'nalishi | Taklif etilayotgan maqola nomi (sanasi) | Muallif |
|---|---|---|---|
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 1. | "Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola" | Noloyiq o'qituvchini vazir ishdan olsin (maktab o'qituvchilari malakasiga doir ayrim mulohazalar) (20-mart) | Pirnazar DAVRONOV, Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi professori |
| 2. | "Pedagog-muallifning dolzarb materiali" | Sertifikat muammosi –2 yoxud muammoning muammosi… (1-may) | Normamat ESHONQULOV, Oltinsoy tumanidagi 63-maktab o'qituvchisi |
| 3. | "Eng yaxshi ocherk yoki esse" | Pafos (8-may) | Salomat ESHIMBETOVA, Beruniy tumanidagi 47-maktab o'qituvchisi |
| 4. | "Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif" | Ona tili ta'limida nimani, qanday o'qitish kerak? (13-mart) | G'ofir HAMROYEV, Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 5. | "Voqelikka munosib sharh yoki munosabat | G'alaba haqiqati (1-may) | Xudoyberdi KOMILOV |
| 6. | "Mazmunli intervyu, suhbat" | Hazratimiz buyuk murabbiy edilar (1-may) | Sharofat HAZRAT qizi |
| 7. | "Sermazmun sahifa" | "Navoiy" taxallusi imlosi va badiiy ma'no miqyoslari (10-aprel) | Nusratullo JUMAXO'JA, ToshDO'TAU professori |
| 8. | "Samarali metodik material" | Ijodkorlik, topqirlik, hushyorlikni ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchiga singdiramiz (10-aprel) | Dilnoza NARZULLAYEVA, Vobkent tumanidagi 21-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi |
| 9. | "O'qishli badiiy asar" | Ustoz o'kinchi (15-may) | Tohir YO'LDOSHEV, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, faxriy o'qituvchi |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 10. | "Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material" | Mamlakat taraqqiyoti o'qituvchilar qo'lida… (20-mart) | Komil SINDOROV, yuridik fanlari doktori, professor |
| 11 | "Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi" | "Ahvolimiz" (29-may) | Tursunoy ESHMAMATOVA, ToshDO'TAU talabasi |

## Kuz fasli

| T/r | Tanlov yo'nalishi | G'olib bo'lgan maqola nomi(sanasi) | Muallif |
|---|---|---|---|
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 1. | "Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola" | Umumiy o'rta ta'limda baholash va ichki monitoring: muammolar, yechimlar va istiqbollar (20-noyabr) | Shohrux ABDURAHIM, pedagodika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) |
| 2. | "Pedagog-muallifning dolzarb materiali" | Bolalarning ezgu orzulari yoxud fizika fanining kelajak avlod uchun ahamiyati haqida (16-oktabr) | Abduqahhor G'ANIYEV, fizika-matematika fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori(DSc) |
| 3. | "Eng yaxshi ocherk yoki esse" | Mening ustozim (9-oktabr) | Jasur KAMOLOV, Qamashi tumanidagi 42-maktab psixologi |
| 4. | "Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif" | Taklifim: bolalar baholanmasin! (9-oktabr) | Erkinjon YARASHEV, Zarafshon shahridagi 13-IDUMning fizika fani o'qituvchisi |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 5. | "Voqelikka munosib sharh yoki munosabat" | AQSH: demokratiyadan trampokratiyaga (20-noyabr) | Xudoyberdi KOMILOV, siyosiy sharhlovchi |
| 6. | "Mazmunli intervyu, suhbat" | Attestatsiya yaqinlashmoqda: bahorgi jarayonlar qanday o'tgan edi? (18-sentabr) | Guloro YUSUPOVA |
| 7. | "Sermazmun sahifa" | Xalqaro reytinglarda yetakchi Kanada ta'lim tizimi siri nimada? (30-oktabr) | Charos NIZOMIDDINOVA |
| 8. | "Samarali metodik material" | Urush, sog'inch va Ota… (18-sentabr) | Mohidil NIZOMOVA, Yozyovon tumanidagi 16-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi |
| 9. | "O'qishli badiiy asar" | Toshkent, Toshkent! (9,16-oktabr) | O'ktam MIRZAYOR |
| *Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.* | | | |
| 10 | "Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material" | Xo'jalik mudiri ekanimdan faxrlanaman! Yoxud shu maoshga roziman! (30-oktabr) | Dostonbek SHARIPOV |
| 11. | "Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi" | Chekinmang – chegaragacha (27-noyabr) | Diyor RAHMON, O'zJOKU talabasi |
| 12. | Jozibali fotolavha yoki surat | Tabiat va inson uchrashuvi (27-noyabr) | Muhammadbobur MAHMARAYIMOV, O'zDJTU talabasi |

Ilm-fan

# 2024-yil kashfiyotlari: hayotni osonlashtiradi

*Insoniyat necha ming yillardan buyon o‘z hayotini yanada osonlashtiradigan kichik ixtirolardan tortib, koinotni ham zabt etish uchun kosmik kashfiyotlar ustida bosh qotirmoqda. 2024-yil ham ana shunday innovatsion yangiliklarga boy bo‘ldi.*

## Simsiz va shaffof televizor namoyish etildi

***LG kompaniyasi elektronika sohasida istiqbolli texnologiyalar uchun tengsiz sinov maydoni bo‘lgan CES–2024 xalqaro ko‘rgazmasida dunyodagi birinchi simsiz va shaffof televizorni namoyish etdi. LG Signature OLED T modeli ko‘rgazmada “Innovatsiyalarning eng yaxshisi” nominatsiyasiga loyiq topildi.***



Ushbu noyob mahsulot zamonaviy dizayn va shaffof 4K OLED ekraniga ega. Audio va videoni simsiz uzatish Zero Connect Box orqali amalga oshiriladi. Shu bois foydalanuvchilar ushbu televizorni xohlagan joyga simsiz o‘rnatishi mumkin.

LG Singature OLED T ikkita ekran rejimini taqdim etadi: shaffof va qora. 77 dyuymli shaffof displey o‘chirilganida deyarli ko‘rinmaydi. Yuqori tasvir sifatini ta’minlaydigan qora rejimga o‘tish uchun masofadan boshqarish pultidagi tugmani bosish kifoya.

Yangilangan protsessor va Alpha 11 AI, shuningdek, LGning WebOS Smart TV operatsion tizimi bilan jihozlangan LG Signature OLED T televizori avvalgi modellarga qaraganda to‘rt baravar yuqori unumdorlikka ega.

## Yadro batareyasi 50 yil to‘xtovsiz ishlaydi

***Xitoyning Betavolt kompaniyasi 50 yil davomida quvvatlanmasdan ishlay oladigan yangi yadro batareyasini taqdim etdi. Bu haqida “The Independent” nashri xabar berdi.***

Qurilma tangadan kichikroq hajmda bo‘lib, 63 ta radioaktiv izotopni o‘z ichiga oladi. Batareya izotoplarning parchalanishi natijasida chiqarilgan energiyani elektr energiyasiga aylantirish orqali ishlaydi.

Ishlab chiqaruvchilar “Ishlanma butunlay xavfsiz: harorat batareyka ichidagi kimyoviy jarayonlarga ta’sir qilmaydi va foydalanish muddati tugagach, komponentlar shunchaki parchalanadi”, deya ta’kidladi.




Ma’lum qilinishicha, yangi avlod “abadiy” akkumulyatori allaqachon sinovdan o‘tkazilmoqda va oxir-oqibat smartfonlar va dronlar uchun ommaviy ishlab chiqariladi.

Shuningdek, yadro batareyalari aerokosmik, sun’iy intellekt uskunalari, tibbiy asbob-uskunalar, mikroprotsessorlar, ilg‘or sensorlar, kichik dronlar va mikrorobotlarda uzoq muddatli energiya ta’minoti ehtiyojlarini qondira oladi.

## Dunyodagi birinchi uch ekranli, buklanadigan smartfon

***“Time” nashri “2024-yilning eng yaxshi 200 kashfiyoti” ro‘yxatiga Xitoyning Huawei kompaniyasi ishlab chiqargan uch ekranli buklanadigan Mate XT smartfonini ham kiritdi.***



Smartfon qalinligi ochilgan holatda kamera blokini hisobga olmaganda atigi 3,6 mm. Mate XT ichki OLED ekrani o‘lchami 10,2 dyuymni tashkil etadi, bu esa buklanadigan smartfonlar ichidagi eng katta displey. Og‘irligi – 238 g.

Bundan tashqari, alohida klaviatura smartfonni portativ noutbukka aylantirish imkonini beradi. Olmos shaklidagi kamera bloki to‘rt elementdan iborat. Asosiy kamera 50 megapikselli va 10 bosqichli o‘zgaruvchan diafragma bilan optik stabilizatsiyaga ega. Qolaversa, 12 megapikselli ultra keng burchakli obyektiv va 5,5x zumli telefoto linzalari mavjud.

Smartfonni 256 va 512 GB xotira va terabaytli versiyalarda xarid qilish mumkin bo‘ladi.

## Sun’iy intellekt inson aralashuvisiz tadqiqot olib boradi

***Yaponiyaning Sakana AI kompaniyasi tadqiqotchilari guruhi Oksford universiteti va boshqa ko‘plab mashhur universitetlar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan birinchi sun’iy intellekt tizimini yaratdi. Bu haqida kompaniyaning rasmiy saytida e’lon qilindi.***

“The AI Scientist” deb nomlangan ushbu loyiha ilmiy dunyo kelajagini o‘zgartirishi mumkin. Ma’lumki, ilmiy tadqiqotlar uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, ko‘p bosqichlarni o‘z ichiga oladi: g‘oyani shakllantirish va uni rejalashtirish, tajribalar o‘tkazish va natijalarni nashr etishgacha. Bu jarayon ko‘pincha, birinchi navbatda, katta vaqt va resurslarni talab qiladi.

Yangi sun’iy intellekt tizimi g‘oyalar yaratishdan tortib, ilmiy maqolalar yaratishgacha bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarning butun jarayonini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan. Ishlab chiquvchilarning ta’kidlashicha, ularning tizimi allaqachon haqiqiy ilmiy tadqiqotlar olib borishga va ilmiy nashrlar standartlariga javob beradigan ishlarni yaratishga qodir.

Biroq ayrim mustaqil tadqiqotchilar “The AI Scientist”ni sinovdan o‘tkazgandan so‘ng, sun’iy intellekt tizimlarining avtonom ishlashiga yo‘l qo‘ymaslik muhimligini ta’kidladilar. Ularning fikricha, bunday tizimlar muhim infratuzilmaning ishlashini buzishi yoki zararli dasturlarni yaratishi mumkin.

## Saturn yo‘ldoshida okean topildi

***Fransiyadagi Parij observatoriyasi astronomlari Saturnning yo‘ldoshi – Mimasning muzli qobig‘i ostida okean borligini aniqlashdi. Koinot standartlariga ko‘ra, u juda yosh bo‘lib, taxminan 5–15 million yil oldin shakllangan. Bu haqida “Nature” jurnalida xabar berildi.***



Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, okean mavjudligi Mimas ichida kuchli issiqlik manbasidan dalolat beradi. Aynan shu narsa muzni suvga aylantirgan. Suyuq holatdagi suv tabiiy yo‘ldosh umumiy hajmining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi.

Mimas – Saturn sayyorasining eng yaqin yo‘ldoshi. 1789-yili ingliz astronomi V.Gershel tomonidan aniqlangan.

**Shohsanam MAHMUDOVA**
tayyorladi.



Bilasizmi?

# Yangi yilga oid qiziqarli fakt va an’analar

1. Rim imperatori Yuliy Sezar bu bayramni Rim eshik va darvozalar xudosi Yanus sharafiga atab “Yanni” deb nomlagan. Yanusning ikki yuzi bo‘lib, biri oldinga, ikkinchisi orqaga qarab turardi.

2. Birinchi yangi yil tabriknomasi 1843-yili Londonda chop etilgan. Shu tariqa yangi yil munosabati bilan tabriknomalar almashish an’anasi paydo bo‘ladi.

3. Daniyada yangi yil kechasi likobchalar sinishi ovozini eshitsangiz, bu kelajakka yaxshi ishora deb hisoblanadi.

4. Eskimoslar Yangi yilni birinchi qor yoqqanda nishonlashadi.

5. Yangi yil arafasida kubaliklar uydagi barcha idishlarga suv to‘ldirib, yangi yil kechasi uni ko‘chaga to‘kib tashlashadi. Bu kelayotgan yilga suvdek musaffo va toza bo‘lib o‘tish maqsadida qilinadi.

6. Gretsiyada oila boshlig‘i yangi yil kechasida hovlidagi uy devoriga anor mevasini urib yoradi. Har tomonga sochilgan anor urug‘lari yangi yilda omad keltiradi deb hisoblanadi.

7. Musulmonlarning Yangi yil bayrami – Navro‘z bahorgi tengkunlik sanasi, ya’ni 21-martda nishonlanadi.

8. Italiyada yangi yil kechasi eski narsalarni derazadan uloqtirish kabi g‘alati bir an’ana bor: ular kiyim, idish-tovoq, hattoki mebel ham bo‘lishi mumkin. Ularning fikricha shu kechada qancha ko‘p eski narsalar tashlansa, yangi yil shuncha ko‘p boylik va omad keltiradi.

9. Tailandda yangi yil bayrami “Songkran” deb nomlanib, aprel oyida bir necha kun davomida ketma-ket nishonlanadi. Bu vaqtda odamlar bir-birlariga baxt tilab, boshdan-oyoq suv quyish uchun ko‘chaga chiqadi. Tailandliklar qanchalik tez va jiqqa ho‘l bo‘lsa, yangi yilda shunchalik ko‘p baxt kelishiga ishonishadi.

10. Tibetliklar yangi yil arafasida somsa pishirib, ko‘chaga chiqib odamlarga ulashishadi. Ular yangi yilda erishiladigan boylik miqdorini tarqatilgan somsalar soniga bog‘liq deb hisoblashadi.

**Feruza JO‘RAYEVA**
tayyorladi.

Xalqaro hayot

# KO'HNA SHOMNING YANGI TONGI

Shu yil oxirida Suriyadagi vaziyat birdan keskinlashib, muxolifatchi kuchlar asadlar sulolasi hokimiyatini ag'darib tashladi. Prezident Bashar Asad Moskvaga qochib jon saqlab qoldi. Dastlab u biror-bir bexavotir mamlakatda qo'nim topmoqchi bo'ldi. Biroq uni hech kim panohiga olishni istamadi.




Bundan avvalroq AQSH va Turkiya ma'murlari Bashar Asadga muxolifatchilar bilan murosaga kelish borasida vositachi bo'lishni taklif qilishdi. Biroq Bashar Asad katta og'asini ranjitib qo'ymaslik uchun ularning yordamidan voz kechib, Moskvadan ko'mak kuta boshladi. Rossiya darhol Suriyadagi qo'shinlarini oyoqqa turg'azdi. Harbiy uchoqlar havoga ko'tarilib, isyonchilar ustiga ajal urug'ini socha boshladi. Ammo ularning kuchi oyoqqa turgan xalq to'lqinini so'ndira olmadi. Yangi harbiy texnikalarni ancha o'zlashtirib olgan isyonchilar Halab, Xoms, Latakiya, Damashq singari yirik shaharlarni o'n bir kun ichida tezlik bilan zabt etishdi. Negadir hukumat armiyasi va boshqa qurolli kuchlar ham muxolifatchilarga juddiy qarshilik ko'rsatmadi. Hatto ularning bir qismi isyonchilar safiga qo'shilib, qolganlari harbiy kiyimlarini yechib, kazarmalarni tark etishdi. Bir so'z bilan aytganda, necha o'n yillardan beri saqlanib kelayotgan davlat tizimi chokchokidan so'kilib ketdi. Ko'pchilik uchun bu kutilmagan voqea bo'lib tuyulsa-da, siyosiy tadqiqotchilar Suriyadagi hokimiyat halokati uzoq vaqtdan beri yetilib kelayotgan tarixiy jarayonning mantiqiy yakuni ekanligini aytishmoqda. Haqiqatan ham, Suriya qaytadan tashkil bo'lgan kundan va undan keyin ham mamlakatda barqaror tinch muhit barpo etilmadi. Tinib-tinchimagan bu davlatning tarix sahifalarini varaqlab ko'rsak, uning bir necha marta qo'ldan qo'lga o'tib kelganiga guvoh bo'lamiz. Milodning 633–640-yillaridan boshlab arab xalifaligi tarkibida bo'lgan ko'hna Shomni 1516-yili Usmoniy Turk imperiyasi zabt etdi. 1918-yili poyoniga yetgan Birinchi jahon urushidan Turkiya mag'lub bo'lib chiqqanidan so'ng, Suriyani Buyuk Britaniya qo'shinlari bosib oldi. 1919-yilgi kelishuv asosida bu hududlar Fransiya tasarrufiga o'tdi. Ikkinchi jahon urushida Fransiyaning zaiflashuvi Suriya xalqi uchun ozodlik eshiklarini ochdi. 1946-yil 17-aprel kuni bu qadimiy o'lka to'la mustaqillikka erishdi. 1958-yili Suriya Misr Arab Respublikasi bilan qo'shilib, Birlashgan Arab Respublikasi tashkil etildi. Ammo ushbu ittifoq uzoqqa bormadi, 1961-yil 28-sentabrda undan ajralib chiqdi va o'zini Suriya Arab Respublikasi deya e'lon qildi. 1963-yili davlat to'ntarishi amalga oshirilib, hokimiyat tepasiga Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi (BAAS) keldi va sobiq SSSR ko'magida davlatni boshqara boshladi. 1971-yil 12-martda Hofiz Asad respublika prezidenti bo'ldi. U 2000-yilgacha, to vafotiga qadar mamlakatni boshqardi. Shu yili prezidentlikka uning o'g'li Bashar Asad tayinlandi. Ota-bola 50 yildan ortiq hokimiyat tepasida bo'ldilar. Bu orada Suriyada ko'p voqealar ro'y berdi. Mamlakatning bir qismini Isroil bosib oldi. Buning ustiga ichki ziddiyatlar yildan yilga kuchayib bordi. Norozilik kayfiyatlarining oldini olish maqsadida davlat repressiv bosimni kuchaytirdi. Yuritilayotgan qattiqqo'l siyosatdan norozi kishilar qamoqqa tashlandi, bo'ysunmaganlar jismonan yo'q qilindi. Bir so'z bilan aytganda, hokimiyat davlat tepasida turgan bir guruh amaldorlar qo'lida to'planib qoldi. Nega bunday bo'lganligining chuqur ijtimoiy-siyosiy sabablari bor edi. Ma'lumki, Suriya azaldan ko'p millatli, ko'p konfessiyali diyor hisoblanadi. Undagi 90 foiz musulmonlar sunniy mazhabiga mansub bo'lib, ular asosan mamlakatning markaziy hududlarida istiqomat qilishadi. Alaviylar esa g'arbiy Suriyada ko'proq, ammo ular sunniylarga qaraganda bir necha marta kam sonli bo'lib, azaldan aholining nisbatan qashshoq qatlamini tashkil etgan. Xalifalik davrida ham, usmoniy turklar boshqaruvida ham ular tuzuk ro'shnolik ko'rmagan. Mamlakatning ozod bo'lib mustaqillikka erishuvi Suriyadagi barcha elatlar va konfessiyalar qatori alaviylarga ham yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bundan ular unumli foydalanishdi. Bolalarini o'qishga yuborib, ilm va hunar o'rganish payida bo'lishdi. Bu holat o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab juda keng miqiyos kasb eta boshladi. Jumladan, Suriya Arab Respublikasining avvalgi prezidenti Hofiz Asad ham yoshligida dastlab shifokorlik kasbini o'rganish uchun Bayrutda o'qimoqchi bo'ladi. Ammo bu uchun yetarli mablag'i bo'lmaganligi tufayli Xomsdagi uchuvchilar tayyorlaydigan harbiy bilim yurtiga o'qishga kirdi. U yerda o'qish ham, yeb-ichish, va hatto, kiyinish ham davlat hisobidan g'irt tekin bo'lib, kambag'al oilalarning farzandlarini ohanrabodek o'ziga tortardi. U o'qishni tugatib, Suriya armiyasida xizmat qila boshladi. Yildan yilga unvoni oshib, martabasi ko'tarila bordi. 1957-yili Sho'ro Ittifoqiga yuborilib, zamonaviy harbiy uchoqlarni boshqarishni o'rgandi. O'g'li Bashar Asad uning yoshlikdagi orzusini amalga oshirib, Londonda shifokorlikka o'qidi. Yaqinda Hofiz Asadning nevarasi ham Moskva davlat universitetida fizika fanlari nomzodi ilmiy darajasini himoya qilib olim bo'ldi. Bularni qayd etishimizdan maqsad shuki, alaviylar avvaldanoq ilm-hunar yo'lini tanladi. Suriyada yashaydigan sunniy mazhabidagi musulmonlar esa savdo-sotiqqa berilib, mol-dunyo yig'ish payida bo'lishdi. Tez fursatda ular ko'proq istiqomat qiladigan Halab shahri Yaqin Sharqning o'ziga xos savdo markaziga aylandi. Oqibatda davlat boshqaruvida sunniylarning ishtiroki yildan yilga kamayib, alaviylarning nufuzi orta bordi. Tabiiyki, bunday holat sunniy mazhabdagi aholi ko'p bo'lgan mamlakatda keng xalq ommasining noroziligiga sabab bo'la boshladi. Natijada Suriyada bir necha bor xalq qo'zg'olonlari ko'tarilib, ma'murlar tomonidan rahmsizlarcha bostirildi. Jumladan, 2011-yil boshida Tunis, Liviya, Misr singari arab mamlakatlarida boshlanib, "Arab bahori" deya nomlangan xalq harakatlari Suriyani ham chetlab o'tmadi. Mamlakatda bo'lib o'tgan noxolis saylov natijalaridan norozilik kuchayib, ommaviy harakatlar avj oldi. Bundan qattiq tashvishlangan Damashq Eron va Rossiya ko'magida xalq isyonini kuch yo'li bilan bostirdi. Isyonkorlar tutib turmalarga tashlandi, ko'plari og'ir qiynoqlar ostida hayotdan ko'z yumdi. Qo'zg'olon o'choqlarini batamom o'chirish uchun terrorizmga qarshi kurash bahonasi bilan 2015-yili Rossiya Suriyaga harbiy qo'shinlarini kiritdi. Kuchli qurollar qudrati bilan sunniylar yashaydigan obod shaharlar kulto'daga aylantirildi. Eng qizig'i shundaki, ushbu dahshatli voqealarga g'arb mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar tomoshabin bo'lib qarab turishdi. Oqibatda millionlab qochqinlar oqimi Turkiya va Yevropa mamlakatlariga yo'naldi. Ularning bir qismi yo'lda, dengizga cho'kib halok bo'lib ketishdi. Bu bilan Moskva o'z oldiga qo'ygan bir necha muhim maqsadlariga erishdi. Birinchidan – Yaqin Sharqdagi mavqeyini mustahkamladi, ikkinchidan – arab mamlakatlaridan Yevropa tomon tortilishi lozim bo'lgan neft va gaz quvurlari yo'lini to'sdi, uchinchidan – qochoqlar oqimini hosil qilib, Yevropa mamlakatlarida muammolar paydo qildi, to'rtinchidan – keyingi yillarda yaratilgan yangi qirg'in qurollarini sinovdan o'tkazdi, beshinchidan – Ukrainaga qarshi bo'lajak urushni repetitsiya qilib, jangovar tajriba orttirdi. Bir so'z bilan aytganda, Putin bir o'q bilan ikki emas besh quyonni urdi. Biroq buning evaziga Suriya xalqi nechog'lik azob-uqubat tortganligi uni zarracha qiziqtirmadi. O'zining tor manfaatlari yo'lida yuz minglab odamlarni urush o'chog'iga ayamay tashlayotgan rahmsiz hukmdordan bundan boshqasini kutib ham bo'lmasdi. Xullas, bugungi kunlarda 2011-yil bahorida boshlangan inqilobiy harakatlar o'zining mantiqiy yakuniga yetdi. Asadlar sulolasining yarim asrdan ziyod davom etgan hukmronligiga chek qo'yildi. "Reuters" axborot agentligining ma'lum qilishicha, Suriyaning ag'darilgan prezidenti mamlakatni tark etishidan bir necha soat oldin o'ttizga yaqin yuqori martabali razvedka va armiya mulozimlarini yig'ib, ularga Rossiyadan harbiy yordam kelayotganini aytgan. U ish kunining oxirida yordamchisiga uyiga ketayotganini bildirgan bo'lsa-da, buning o'rniga aeroportga yo'l olgan. Bunda u hatto ukasini ham ogohlantirmagan. Bashar Asadning rafiqasi Asma va ularning uch farzandi oldinroq Rossiyaga jo'natib yuborilgan, deb xabar berdi "Reuters". Umuman olganda, Asadning Suriyadan qochib ketishi uning atrofidagilar uchun kutilmagan holat bo'lgani haqidagi ma'lumot o'ndan ortiq manbalar tomonidan tasdiqlangan. Dastlab qochoq prezident Birlashgan Arab Amirliklariga bormoqchi bo'lgan. Ammo BAA ma'murlari Yevropa va AQSH joriy etishi mumkin bo'lgan ehtimoliy sanksiyalardan qo'rqib, uni qabul qilishdan bosh tortgan, deb yozadi "Reuters". Yana bir manbaning xabar berishicha, 4-bronetank diviziyasi qo'mondoni o'rinbosari, Bashar Asadning ishonchli vakili, Suriya armiyasi generali Ali Mahmud Damashq atrofidagi uyi kutubxonasidan o'lik holda topilgan. Guvohlarning aytishlaricha, u prezident qochib ketganini bilgach, o'zini-o'zi otgan. Buning juda chuqur sabablari bor. Gazetxonlarimizning yodida bo'lsa, bir vaqtlar qahr-g'azabga to'lgan olomon Ruminiya prezidenti Nikolaye Chausheskuni, Iroq prezidenti Saddam Husaynni yoki bo'lmasa, Liviya rahbari Muammar Qaddofiyni ham ushlagan joyida rahmsizlik bilan qatl etgan edi. Bashar Asad, yaxshiyamki, Rossiya maxsus xizmati xodimlari ko'magida zudlik bilan mamlakatni tark etdi. Aks holda, nomi yuqorida keltirilgan marhum hukmdorlarning kuni uning boshiga ham tushishi aniq edi. Nega desangiz, uzoq yillardan buyon jabr-zulmda yashagan xalqning asadlar rejimiga nisbatan nafrati beqiyos edi. Buni quyidagi bir misolda yaqqol ko'rish mumkin. Ommaviy axborot manbalarining xabar berishicha, Damashq yaqinidagi qabristondan kamida yuz ming mahbusning jasadlari topilgan. AQSHda joylashgan suriyalik inson huquqlari tashkiloti rahbari Muoz Mustafoning ma'lum qilishicha, ushbu ommaviy qabristonda sobiq prezident Bashar Asad hukumati tomonidan qatl etilgan kishilar orasida amerikalik, yevropalik va boshqa chet ellik fuqarolar ham bor. Uning qo'shimcha qilishicha, jasadlar soni bundan ham ko'p bo'lishi mumkin. "Bu taxminiy o'ta optimistik hisob", deydi Mustafo. Qisqa qilib aytganda, Suriyada hokimiyat tanazzuli bilan uzoq davom etgan jabr-zulm davri o'z poyoniga yetdi. Bu bir tomondan yaxshi, ammo ikkinchi tomondan Suriyaning endigi taqdiri barchani o'ylantirmoqda. Mamlakat kelgusida milliy yaxlitligi va suverenitetini saqlab qoladimi, yoki mayda bo'laklarga bo'linib ketadimi, degan savol hamon ochiqligicha qolmoqda. Chunki Suriya faqat milliy yoki konfessial jihatdangina emas, balki harbiy-siyosiy tomondan ham qiyofasi g'oyat rangbarang. U yerda sotsialistlardan tortib fundamentalistlargacha, demokratlardan ishidchilargacha, kurdlardan druzlargacha hokimiyat uchun uzoq yillardan buyon talashib kelayotgan guruhlar mavjud. Hozirgi qo'zg'olonchilar rahbariyatining iddaosiga ko'ra mamlakatda dunyoviy-demokratik-inklyuziv boshqaruv joriy etilishi rejalashtirilmoqda ekan. Bu qaysi yo'l va qanaqa usul bilan amalga oshiriladi, albatta kelajak ko'rsatadi. Ammo shunisi aniqki, Suriyadagi voqealar dunyo siyosiy iqlimini sezilarli darajada o'zgartirib yubordi. Eng avvalo, Rossiyaning Yaqin Sharqdagi rejalari tamoman chalkashib ketdi. Necha o'n yillardan buyon milliardlab dollarlar xarj qilingan siyosiy loyiha sanoqli kunlar ichida barbod bo'ldi. Prezident Putin bu borada rossiyaliklarni yupatib gapirayotgan bo'lsa-da, ichidan o'tayotgan iztirobini faqat o'zi biladi. U qanchalik o'zini yupatmasin, bu Moskva uchun o'ta og'ir yo'qotish bo'ldi. Chunki Suriya Kremlning O'rta Sharq va Afrikadagi ta'sirini ta'minlab turuvchi o'ziga xos tayanch tomiri edi. Shu bilan birga bu yo'qotish uning Xitoy va Eron singari ittifoqchilari uchun ham katta zarba bo'ldi. Bu bilan, va nihoyat, uchbu jafokash mamlakatda jabr-zulmdan holi zamonaviy, ozod, tinch davlat barpo etish imkoniyati paydo bo'ldi. Endi hamma gap olaquroq kayfiyatdagi qo'zg'olonchilarning bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishlariga bog'liq bo'lib qoldi. Yangi kirib kelayotgan 2025-yil tinib-tinchimagan bu mamlakatning erksevar xalqiga tinchlik va osoyishtalik olib kelsin!

**Xudoyberdi KOMILOV,**
**siyosiy sharhlovchi**




***Yuvmitov Anvar Sayfullayevichning 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi bo‘yicha “Ko‘p qavatli binolar aktiv seysmik himoyasining noan’anaviy usuli” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 9-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.***

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 508-02-95;
e-mail: devon@taqu.edu.uz; veb-sayt: www.taqu.edu.uz

***Saparniyazov Sansizbay Kadirniyazovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.***

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

***Junaydullayev Mels Asliddin o‘g‘lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Bo‘lajak harbiy ta’lim mutaxassislarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.***

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

***Atashikova Nilufar Anarmatovnaning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(ingliz tili) ixtisosligi bo‘yicha “Iqtisodchi talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda janriy yondashuv (ingliz tili materiallari asosida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 7-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.***

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9 “a” mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92;
e-mail: uzdjtu d@edu.uz, uzswlu_info@mail.ru

***Bekmirzayev Mirjalol Xusanboy o‘g‘lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “12–15 yoshli gimnastikachilarning og‘irliklar yordamida kuch-qobiliyatlarini rivojlantirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.***

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

***Mamajonov Dilshodbek Adxamovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “V–VII sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida statik mashqlarni qo‘llash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.***

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

***Toshmatov Xikmat O‘rozali o‘g‘lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi o‘q otuvchilarning mashg‘ulot vosita va yuklamalar hajmini optimallashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 11-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.***

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti jamoasi shu institutning direktori, filologiya fanlari doktori Nizomiddin Mahmudovga ukasi

**Ismoil MAHMUDOV**ning

vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi Tarix fakulteti dispetcheri Behzod Abdulhakimovga otasi

**Baxtiyor BABAXANOV**ning

vafoti munosabati bilan ta’ziya izhor etadi.

***Sarmanov Sherzod Shermaxmatovichning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonning janubiy mintaqalari sharoitiga mos mahsuldor va tezpishar arpa (H. vulgare L., H. disticum L.) navlarini yaratish hamda urug'chiligini takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
sayt: www.tdau.uz, e-xat: tdau@exat.uz, e-mail: tuag_info@edu.uz

***Naimova Shohida Anvarovnaning 14.00.29 – Gematologiya va transfuziologiya hamda 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosliklari bo'yicha "Revmatoid artrit surunkali buyrak kasalliklari bilan komorbid kechganda kamqonlik rivojlanishining patogenetik jihatlari va davoni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 24-dekabr kuni soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

***Mahammatova Mehriniso Usmonovnaning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Yumshoq bug'doyning yangi navlarini yaratishda respublikaning turli mintaqalarga mos navlar modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
sayt: www.tdau.uz, e-xat: tdau@exat.uz, e-mail: tuag_info@edu.uz

***Yulbarsova Xurshida Abdullajonovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 26-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

***Nazarov Xudayberdi Kuydimuratovichning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Makkajo'xorining yangi tezpishar, hosildor nav va duragaylarini yaratish hamda birlamchi urug'chiligini takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/08.05.2024.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salor shaharchasi,
Universitet ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (78) 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

***Abdimuratova Nilufar Paraxatovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info @edu.uz

***Madaminov Uktamjon Ataxanovichning 13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Elektron ta'lim muhitida fanlarni mobil ilovalar yaratish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (Web dasturlashga kirish fani misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.13/05.05.2023.T.162.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (61) 222-49-10; e-mail: tatunf@tatunf.uz

***Chuliyev Maxmatmurod Norbayevichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Suv tanqisligi sharoitida takroriy ekin sifatida soyani sug'orish tartiblarini ishlab chiqish (Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
sayt: www.tdau.uz, e-xat: tdau@exat.uz, e-mail: tuag_info@edu.uz

***Ismailova Muxayyo Karimovnaning 15.00.01 – Dori texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Spazmolitik ta'sirga ega "Simverin" tabletkasi texnologiyasini ishlab chiqishning farmakotexnologik aspektlari" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 26-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: info@pharmi.uz

***Qunnazarov Ilesbay Sarsenbayevichning 13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "O'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini multimediali elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi (boshlang'ich professional ta'lim muassasalari misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.13/05.05.2023.T.162.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (61) 222-49-10; e-mail: tatunf@tatunf.uz

***Mavlonova Mavluda Davurovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz tilidan o'zlashgan axborot texnologiyalari terminlarining leksik-semantik xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li
ko'chasi, G-9 "a" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92;
e-mail: uzdjtu d@edu.uz, e-mail: uzswlu_info@mail.ru

***Xabiyev Temur Rafaelevichning 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha "Menejerlarning muzokaralar faoliyatida qaror qabul qilishning metakognitiv xususiyatlari" ("Метакогнитивные особенности принятия решений в переговорной деятельности менеджеров") mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2021.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

***Xuddiyeva Nargiza Yuldashevnaning 14.00.08 – Oftalmologiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha "Ko'z oldingi segmentining virusli zararlanishini davolash samaradorligini klinik-laborator baholash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 26-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

***Babadjanova Nodira Tairovnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "COVID-19 bilan kasallangan bolalarda gingivitning oldini olish va davolashni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 140100, Samarqand viloyati, Samarqand shahri,
Amir Temur ko'chasi, 18-"a" uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66, 233-71-75; e-mail: samgmi@mail.ru

***Xodjaxanov Muzaffar Muxtarovichning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Marketing tushunchalari va terminlarining chog'ishtirma tadqiqi(ingliz, rus, o'zbek tillari misolida)" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li
ko'chasi, G-9 "a" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92;
e-mail: uzdjtu d@edu.uz, e-mail: uzswlu_info@mail.ru

***Farmonova Madina Azamovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya) ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim muassasalarida botanika fanini o'qitishda mobil ilovalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi BuxorodavlatuniversitetihuzuridagiilmiydarajalarberuvchiPhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

***Dusmatova Lola Xashimovnaning 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ekish muddatlari hamda me'yorlarini soyaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri(Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
sayt: www.tdau.uz, e-xat: tdau@yexat.uz, e-mail: tuag_info@edu.uz

*Berdiyev Jasur Qo'ldoshevichning 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha "Mintaqada mehmonxona xo'jaliklari samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish(Qashqadaryo viloyati misolida)" mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.111.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 226-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23; e-mail: kiei_ifo@edu.uz

*Suyunov Sherzodbek Jamolovichning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Yuqori sinf o'quvchilarining milliy-ma'naviy salohiyatini rivojlantirishda oilaviy tarbiya tizimini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 6-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 267-05-36; e-mail: mvaoiti@.exat.uz, mvaoiti @ gmail.com

*Rahimova Dildoraxon Qodirjonovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doklori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PttD.21/30.10.2020. PedlS.127.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 6-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 267-05-36; e-mail: mvaoiti@.exat.uz, mvaoiti @ gmail.com

*Jumanazarova Gullola Yoqubjanovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim tizimida oilashunos olim Abdurashid Munavvarovning ilmiy-pedagogik merosini o'rganish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.2ll30.l0.2A20. Ped/S.127.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 6-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 267-05-36; e-mail: mvaoiti@.exat.uz, mvaoiti @ gmail.com

*Eshqobilova Nargiza Mengnarovnaning 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha "Mintaqa transport-logistika tizimi samaradorligini oshirish yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida)" mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasisining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.111.01 raqamli ilmiy kengashining 2024-yil 26-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 226-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23; e-mail: kiei_ifo@edu.uz

*Omonova Maftuna Shavkat qizining 14.00.04 – Otorinolaringologiya ixtisosligi bo'yicha "Polipoz rinosinusitlarni kompleks tashxislash va davolashga yondashuvni takomillashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/05.06.2020.Tib.102.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 26-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66, 233-71-75; e-mail: samgmi@mail.ru

*Yuldashev G'iyos Turabekovichning 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari (Samarqand viloyati misolida)" mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.111.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 26-dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 226-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23; e-mail: kiei_ifo@edu.uz

*Xodjaxanov Muzaffar Muxtarovichning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Marketing tushunchalari va terminlarining chog'ishtirma tadqiqi (ingliz, rus, o'zbek tillari misolida)" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 "a" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu_d@edu.uz, uzgumya1@exat.uz

*Shukurov Ilhom Safarboyevichning 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Fermer xo'jaliklariga servis xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida)" mavzusidagi(iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.111.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, "Mustaqillik" ko'chasi, 226-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23; e-mail: kiei_ifo@edu.uz

*Mirzoyev Valijon Ibodilloyevichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Jigar sirrozi kuzatilgan bemorlarda o'tkir pankreatitning davolash – diagnostik taktikasi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 14-yanvar kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Boboyev Farrux Axmedjonovichning 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda direktorlarning shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023. Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

*Kayumov Oybek Achilovichning 13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) ixtisosligi bo'yicha "Interaktiv intellektual elektron ta'lim resursini yaratish va undan foydalanish metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil 27-dekabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

*To'xtayeva Fazilat Shavkat qizining 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

*To'xtasheva Nodira Qahramonovnaning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Pedagogika kolleji o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quv amaliyotlarini tashkil etish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 28-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

*Jo'rayev Yashnarjon Ravshan o'g'lining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarini tayyorlash sifatini oshirish uslubini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil 24-dekabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tdi.*

Manzil: 100167, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (71) 299-00-01, 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz

*Auezova Raya Tileubayevnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'limini veb-kvest texnologiyasi asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish (informatika va raqamli texnologiya fani misolida)" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 26-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

*Qutliyev Abrorbek Anvarbek o'g'lining 18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi(texnika) ixtisosligi bo'yicha "Tarixiy shaharlarda avtotransport harakatini rejalashtirishda shaharsozlik usullarini takomillashtirish (Xiva shahri misolida)" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitekfura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/04.07.2023.T.11.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 10-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 9-uy.
Tel/faks: (55) 508-02-95; e-mail: devon@taqu.edu.uz; veb-sayt: www.taqu.edu.uz

*Isaqov Alisher Ne'mat o'g'lining 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Inshoot pastki byefi deformatsiyalanadigan uchastkasidagi mahalliy yuvilishni tadqiq qilish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.T.111.04 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kiei_info@edu.uz

*Norova Mavjuda Baxodurovnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Gips ishlab chiqarish korxonalari ishchilarida stomatologik kasalliklarning oldini olish va davolashni optimallashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 14-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru



# HAR BIR KASB EGASINING ORTIDA USTOZLAR TURADI

**Avaz OXUN,**
**badiiy so‘z ustasi, “Shuhrat” medali sohibi:**

– Bir maktab o‘quvchisi o‘qituvchisining yonidan salom bermay, xo‘mrayib o‘tib ketibdi. O‘qituvchining ham jahli chiqibdi-da, “To‘ychiyev, sening o‘qituvchingman, sinf rahbaring! Nimaga salom bermayapsan?” desa, “E-e, domla, hozir ta’til-ku!” degan ekan. Albatta, bu – hazil! Ustozlarimizni nafaqat bayramlarda, balki har doim e’zozlashimiz kerak.

O‘qituvchilarga har doim mehr-u muhabbatim bo‘lakcha. Konsertlarimda ham sovg‘a uchun eng avvalo ustozlarni izlayman. Ammo hazrat Navoiy aytganlaridek, ulardan qarzimizni hech narsa bilan uzolmaymiz. Xalqimizga manzur bo‘lishimda ustozlarimning hissasi katta. Ularni nomma-nom aytsam, qog‘oz-qalam yetmaydi. Chunki hayotda bizga bitta narsa o‘rgatgan inson ham ustozdir. Shuningdek, har bir kasb egasining ortida ustozlar turadi. Xoh olim bo‘lsin, xoh san’atkor – ustozlar sababli bugun shu darajada.

Yangi yil ostonasida turar ekanmiz, mashaqqatli, shuning barobarida o‘ta mas’uliyatli kasb egalari, aziz ustozlarimizni bayram bilan tabriklayman. Kelayotgan yangi yil oilalarimizga fayz-barokatli kelsin!

# MENI MEN QILGAN – USTOZLARIM



**Shuhrat DARYO,**
**estrada qo‘shiqchisi va bastakor:**

– Inson borki, nimagadir intilib, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga harakat qilib yashaydi. Umrning past-u baland yo‘llaridan o‘tib, murodga yetishimizda ustozlarimizning ota-onamizdan kam bo‘lmagan hissasi, hech qanday boylik bilan qaytarib bo‘lmaydigan mashaqqatli mehnati bor. Juda katta yutuqlarga erishdim deb hisoblamayman, ammo eng asosiysi, xalqimiz menga ko‘nglidan joy berdi. Bunga, eng avvalo, ustozlarimning halol ijod qilish, so‘zni saralab kuylash, so‘z qadrini bilishni yurak-yuragimga singdirishi orqali erishdim deb hisoblayman. Hali o‘zimdan ko‘nglim to‘lganicha yo‘q, har doim ijod, izlanishdaman.

Ustozlarimning har bir sabog‘i yodimda. Mansurjon aka Ma’mirov *“O‘z yo‘lingni yaratishga harakat qil”* derdi. Farrux Zokirovdan o‘zga millatlar ommaviy qo‘shiqlarini kuylashni, ustoz Botir Zokirovning asarlaridan lirik estrada, so‘zni his qilib kuylashni, Ravshan Namozovdan folklor san’atining qudratini his qilishni, Sherali Jo‘rayev qo‘shiqlari bilan xalqqa ma’qul keladigan ovozni charxlashni o‘rgandim. Ustoz Muhriddin Xoliqov qo‘shiqlaridan erkalab, mayin kuylashni o‘rgangan bo‘lsam, Muslim Magomayev, Rashid Bexbutovlar ijrolarini o‘rganib, qo‘shiq mehr va muhabbat ulashishda millat ajratmasligini angladim. Haqiqatan ham, ustozlarimizning kamolotimizda o‘zgacha o‘rni bor. Meni men qilgan – ustozlarim.

O‘tgan ustozlarimizni Olloh rahmatiga olsin! Hayot ustozlarimga, ular qatori butun xalqimizga kirib kelayotgan yangi yil yangidan yangi ijodga to‘la, qutlug‘ va barakali kelsin! Sihat-salomatlik, omad, quvonch hech birimizni tark etmasin! Bayramlarimiz bayramlarga ulansin! Fursatdan foydalanib, men uchun qadrli va sevimli bo‘lgan “Ma’rifat” gazetasi ijodkorlariga sog‘lik, ishlariga fayz-u baraka tilayman! Xalqimizga ma’rifat, ziyo ulashishdek savobli ishlaringizni Olloh bardavom qilsin!

# USTOZ BO‘LGIM KELADI



**Dilnoza KUBAYEVA,**
**aktrisa,**
**“Shuhrat” medali sohibi:**

– O‘qituvchilik kasbiga muhabbatim judayam kuchli. Katta bo‘lganimda o‘qituvchi bo‘lsam keragov, deb o‘ylardim. Hali-hanuz ustoz bo‘lgim keladi, lekin bu kasbning naqadar mas’uliyatli, ulug‘vorligini bilganim uchun qo‘rqaman, jur’atim yetmaydi, haddim sig‘maydi. Bu kasb egalariga bo‘lgan hurmatim cheksiz, u xoh meni o‘qitgan ustoz bo‘lsin, xoh o‘qitmagan. Muallimlik shundayin ulug‘ kasb… Ayniqsa, chinakam ustozlarni juda yaxshi ko‘raman. Chinakam deganimning boisi, ustoz siyratida ham, suratida ham ma’rifat, odob, zakiylik, kuchli zehniyatni ko‘rishni istaymiz. Lekin, afsus, barcha ustozlar ham bu talablarga to‘laligicha javob berolmaydi…

Shukurki, maktabgacha ta’limda ham, o‘rta maktabda ham, litsey, oligohda ham eng yaxshi ustozlardan ta’lim-tarbiya oldim. Ularning hammasi hayotimning qaysidir muvaffaqiyatlari, qaysidir keskin burilishlariga sababchi bo‘lgan, men uchun judayam qadrli insonlardir. Ayniqsa, institutgacha bo‘lgan davrim, ya’ni Alisher Navoiy nomidagi Respublika nafis san’at litseyida suxandonlik yo‘nalishi bo‘yicha mahoratimni oshirgan, saboq bergan ustozim Bahodir Nazarovni ko‘p eslayman. Mana shu darajaga yetishimda ustoz Bahodir Nazarovning hissasi ulkan va beqiyos. Ustoz so‘zni his qilish, uni to‘g‘ri talaffuz qilish, sahna nutqi va odobi, madaniyati, aktyorlik mahorati, rol ichida yashash, his qilish, fikrlash kabi qobiliyatlarimizning mukammal darajada rivojlanishiga sababchi bo‘lgan. Aktyor uchun zarur bo‘lgan bilimlarni kichik detallarigacha yuragimizga jo qilgan, qulog‘imizga quygan. Ustozimning har bir gapi, o‘giti, pand-u nasihati quloqlarim ostida hamon jaranglab turadi. Har gal she’r o‘qib, maqtov eshitganimda “Bu maqtov Bahodir Nazarovga tegishli!” deyman. Chunki, sahnada she’r o‘qish, uni his qilish, she’r mag‘zini chaqib, uning ichida yashab, so‘ng ommaga yetkazish sir-sinoatini u insondan o‘rganganman.

So‘ngra litseydan uchirma bo‘lib, Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at institutiga o‘qishga kirdim. Bu muqaddas dargoh meni qalbi ummon Munavvara Abdullayeva bilan uchrashtirdi. Munavvara opa meni teatrga yo‘naltirdi, hali talaba bo‘lishimga qaramay, kinoda rol o‘ynashimga yo‘l ochib berdi. Vaholanki, o‘sha paytlari talabaga kinoda rol o‘ynashga ruxsat yo‘q edi. Biroq ustoz biz talabalardagi mutaxassisligimizga bo‘lgan chanqoqlikni ko‘rib, kuzatib biroz ertaroq ruxsat bergan. O‘sha kezlari Munavvara opa teatrda rejissyor bo‘lib ishlardi. Baxtni qarangki, kunlarning birida ustoz o‘zi rejissyorlik qilayotgan spektakllardan biridagi bosh qahramon rolini menga ishonib topshirdi…

Har doim imkonim bo‘ldi deguncha, ustozlarimni yo‘qlab, ularning duolarini olishga oshiqaman. Shunday kezlarda bolalik orzularim yana qayta bo‘y ko‘rsatadi – ustoz bo‘lgim keladi. Ajab emas, kelgusida o‘qituvchilikka mehrim ortidan bo‘lajak aktyorlarga dars bersam. Ne ajab, ilohim, Ollohim yetkazsin!...

Hayotimizni shunday nurafshon qilgan, o‘zidagi borini ayamagan ustozlarimiz hamisha sog‘-omon bo‘lishsin! Doimo shogirdlar e’zoz-u ardog‘ida yashasinlar!

Azizlarim, ustozlarimizning bizni deb qordek oqargan sochlari-yu, yuzlaridagi ajinlar haqqi-hurmati ularni doimo ardoqlaylik!

Yangi yil ostonasida mana shunday ajib suhbat qurar ekanmiz, fursatdan foydalanib aziz ustozlarimiz, butun xalqimizni eshik qoqib kelayotgan bayram bilan chin yurakdan tabriklayman! Mana shunday chiroyli kunlarga yetkazganiga Yaratgan egamga shukurlar bo‘lsin! Yurtimizda faqat va faqat tinchlik-osoyishtalik hukmronlik qilsin! Siz, azizlarimning qalbingizdan hech qachon xotirjamlik arimasin! Kelayotgan yangi yil eng yaxshi yillardan bo‘lsin! Yurtimiz har bir jabhada eng yuksak marralarni, eng yuksak cho‘qqilarni zabt etaversin!

“Ma’rifat” muxbiri
Shahnoza YANGIBOYEVA tayyorladi.


Ma'rifat

TA’SIS ETUVCHILAR:
O‘zbekiston maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
O‘zbekiston oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-5879. Tiraji-5690.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:
Tel/faks: (71) 212-01-50

ISSN 2010-6416

“Ma’rifat”dan materiallarni ko‘chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:
(t) – tijorat belgisi.

**Dizayner:** Malohat Toshova.
**Navbatchi muharrir:** Faxriddin Rahimov.
**Navbatchi:** Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

**MANZILIMIZ:**
100099 Toshkent shahri, Darvozakent ko‘chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
**Korxona manzili:** Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.